

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

SAN’AT FAKULTETI

«Himoyaga ruxsat etilsin»

Fakultet dekani

----- K.M. Gulyamov

«-----» -----2014 yil

«5140900-KASB TA’LIMI(5211200-AMALIY SAN’AT) YO‘NALISHI»

AS-402 GURUH TALABASI ESHBOEV XUSHNUD

FAXRIDDINOVICHNING

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MAVZU: NAQQOSHLIK TO‘GRAKLARIDA UY-RO‘ZG‘OR
BUYUMLARIGA BADIY ISHLOV BERISH TEXNOLOGIYASI**

_____talaba X. Eshboev

Ilmiy rahbar: «Amaliy sanat

va uni o‘qitish metodikasi»

kafedrasi mudiri,

prof._____S.S. Bulatov

Taqrizchi: dots. _____N. Tolipov

«Himoyaga tavsiya etilsin»

«Amaliy sanat va uni o‘qitish

Metodikasi» kafedrasi mudiri,

Prof_____S.S. Bulatov

«_____» _____2014 yil

REJA

KIRISH

1 BOB. NAQQOSHLIK TO‘GRAKLARINI OLIB BORISHNING NAZARIY ASOSLARI..... 8

1.1. Naqqoshlik san’atini milliy an’analar asosida rivojlanishi va taraqqiy etishi..... 8

1.2. Naqqosh ustalarni milliy me’morchilikni rivojlanishiga qo‘shgan xissalari..... 12

2 BOB. NAQQOSHLIK TO‘GRAKLARIDA UY-RO‘ZG‘OR BUYUMLARIGA BADIY ISHLOV BERISH TEXNOLOGIYASI..... 17

2.1. To‘garak mashg‘ulotlarida naqqoshlik hunarini usta-shogird an’analar asosida o‘rgatilishining o‘ziga hos tomonlari..... 17

2.2. Sodda xajmli buyumlarni bezash..... 32

3. BOB KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA NAQQOSHLIK TO‘GARAKLARIDA UY RO‘ZG‘OR BUYUMLARIGA BADIY ISHLOV BERISH METODIKASI..... 36

XULOSA..... 69

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR..... 70

ILOVALAR..... 72

1-ILOVA.O‘ZBEKCHA INGLIZCHA TERMINLAR.

2-ILOVA. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR.

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishning dolzarbligi. O‘zbekistonda yangi ma’naviy-g‘oyaviy yo‘nalishlarning shakllanishi o‘z navbatida, zamonaviy san’atning barcha sohalariga ta’sir etib, ijobiy izlanishlar doirasini kengaytirib, badiiy tafakkur rivojini yanada jadallashtiradi. Tarixiy, madaniy va ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning keng qatlamlarini qayta idrok etish g‘oyalari, yangilanish tamoyillari san’atimiz tizimlarida yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning barcha sohalarida ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar ma’naviy, ma’rifiy, mafkuraviy, kasbiy jihatdan mutlaqo yangi zamon kishisini takomillashtirishni talab etadi. Hozirgi zamon yoshlarini milliy, sharqona, tarixiy qadriyatlarni hisobga olgan holda zamonaviy ruhda tarbiyalash ham ijobiy insoniy fazilatlarga ega bo‘lgan kasb sohiblarini tayyorlash muammosi davlat miqyosidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Buyuk vatandoshlarimiz - Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Mirzo Ulug‘bek, Muhammad Murod Samarqandiy, Kamollidin Behzodlarning nomlari g‘urur bilan tilga olinmoqda. Ularning sharafiga yodgorliklar majmualari qurilib, kitoblar chop etilib, faoliyatlari keng targ‘ib etilmoqda.

“Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma’naviyatini uning tarixi, - deb ta’kidlaydi, Prezidentimiz I.Karimov, – o‘ziga xos urf-odat va an’analarini, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma’naviy meros, madaniy boyliklar, ko‘hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi”.¹

Ushbu omillardan oliy ta’lim tizimida yoshlarga ta’lim-tarbiya berish jarayonida milliy san’at namunalaridan, ota-bobolar tomonidan yaratilgan va butun jahonga mashhur bo‘lgan ajoyib san’at namunalaridan keng foydalanishda katta ahamiyat berilmoqda.

¹ Каримов И.А. Юсак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. 29-30–б.

O'zbekiston Respublikasining istiqbolga erishishi ma'naviy, tarixiy qadriyatlarimiz hamda xalq pedagogikasi an'alarini qayta tiklash va ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirishga yo'l ochib beradi. Ayniqsa, asriy an'analarga ega bo'lgan xalq amaliy san'atiga o'quvchilarni jalb etish – katta tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligi bilan diqqatga sazovordir. SHu jihatdan, ham yosh avlodni har tomonlama komil toptirishda pedagogika fani o'z oldiga yangi vazifalar yukladi. Zero, boshqa sohalar bilan hamohang tarzda ilm va san'at sohalarida ham tub o'zgarishlar davri kechmoqda. Bu o'zgarishlar yosh avlodda nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki ularni amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirish va takomillashtirishni ham taqazo etadi. Ijtimoiy-madaniy, ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatga molik bo'lgan bu tadbirlarni amalga oshirishda ko'p yillar davomida milliy boylik bo'lib kelgan xalqlarimizning madaniy va maishiy hayotga keng tadbiriq etilgan go'zal hunarlardan biri amaliy san'atni yanada chuqurroq o'rgatish muammosi ham hozirgi kunda juda katta pedagogik ahamiyatga egadir.

Hozirgi zamon bilan uyg'unlashish ta'lim-tarbiya jarayonlarini takomillashtirishning istiqbol yo'llarini belgilaydigan muhim, ayni chog'da dolzarb vazifalarni hal etish uchun psixologiya, pedagogika, didaktika fanlariga nima etishmasligini aniqlamoq zarur. O'zbek xalqining, eng avvalo, yosh avlodning madaniy-ma'naviy va aqliy kamolotini ta'min etish, shaxsda kasbiy qobiliyatlarni rivojlantirish har bir yoshda muayyan narsaga qiziqishni, dunyoni mukammal bilishning tarkibi topishi bilan ruhiy fojealar oldini olish, shunga o'xshash ta'lim-tarbiyaviy faoliyatlarning aniq tizimini yaratish uchun psixologiya, pedagogika, didaktika fanlari oldidagi asosiy muammolarni belgilab olish maqsadga muvofiqdir.

Ma'naviyatimizning xazinasini bo'lmish o'zbek xalq amaliy san'ati turlari – yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyatga egadir. Mazkur masalani rivojlantirishda esa amaliy san'atning turli mezon va mexanizmlarini o'rganish, tahlil etish, ijobiy sifatlarini targ'ib qilish zarurdir.

Ushbu holatlar tadqiqotimiz mavzuini “Amaliy san’at darslarida talabalarning tasviriy ko‘nikma va malakalarini shakllantirish (Miniatyura darslari misolida)” deb nomlanishida asos bo‘lib xizmat qildi. Miniatyuralardagi koligrafik bitiklar, g‘azallar, naqshlar, me‘moriy obidalar, tasviriy san’atning tilsimiy turlarini ko‘rish orqali ruhimizga hissiy quvonch olib keladi.

Mustaqillikka erishgan xalqimiz san’atshunoslaridan madaniy meros xazinasiga munosib yodgorlik yoki yodnomalarni izlab topish, ularni chuqur o‘rganib mag‘zini chaqish, ular tashkil etgan ijod pillapoyalaridan ko‘tarilib yangi zamon madaniyati ravnaqiga xizmat etish kabi g‘oyat mas’ul va e’tiborli ishlar ko‘lami kutib turibdi. O‘zi bir olam bo‘lgan me‘morlik san’ati va u bilan chambarchas bog‘liq xalq amaliy san’ati, xususan naqqoshlik, o‘ymakorlik, ganchkorlik, kandakorlik kabi sohalaridagi ijod namunalarini o‘rganish yo‘lida anchagina samarali tadqiqotlar mavjud.

Ko‘p yillik izlanishlar ta’kidlashga imkon beradiki, xalq me’morlari, xalq ustalari taomiliga xos anchagina muammolar bor, ulardan biri ramziy bezaklarni o‘qish alifbosining tuzilmaganligidadir. Kitobni yozishdan maqsad shundaki, me‘moriy bezak va amaliy san’at yo‘nalishda tayyorlanayotgan kadrlarimizni jahon andozalari talablariga javob bera oladigan barkamol qilib tarbiyalashdan iborat. Buning uchun maktablarda, kasb-hunar kollejlarida va oliy o‘quv yurtlaridagi o‘quvchi-talabalarimizni ajdodlarimiz qoldirgan, ma’naviy merosimiz bo‘lmish me‘moriy yodgorliklar va amaliy san’at asarlaridagi ramziy bezaklarni o‘qiy olishga, undagi mantiqiy falsafiy g‘oyalarni to‘g‘ri anglashga o‘rgatish zarurdir.

Hozir ta’lim tizimida amaliy san’at turlari: naqqoshlik, ganchkorlik, yog‘och o‘ymakorlik, zardo‘zlik, kulolchilik, miniatyura san’ati o‘rgatilmaoqda. Ushbu san’at turlarini o‘rgatish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan bo‘lsa-da, ayrim muammolar mavjud. Ulardan biri didaktikaning muhim tamoyillaridan biri – ko‘rgazmalilik to‘liq amalga oshirilmayotganligidir. Amaliy san’at turlari va miniatyuradan o‘quv, metodik qo‘llanma va elektron ko‘rgazmali qurollar etarli emas. Bu esa raqobatdosh mutaxassislar tayyorlash imkonini cheklab qo‘ymoqda.

Xalq san'atini yoshlarga o'rgatish eng muhim vazifalardan deb hisoblanadi. CHunonchi, xalq amaliy san'ati eng ommaviy, eng xalqchil, eng hayotiy ijod ifodasidir. U asrlar mobaynida shu tarzda xalq ijodi sifatida shakillanib, taraqqiy etgan. SHuni aloxida takidlash joizki, xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlash mukammal tizmini shakillantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir. Ma'lumki, xar bir avlod oldida insoniyat yaratgan jamiki bilimlarni o'rganish va o'zlashtirish vazifasi turadi. Zero ilim bobidagi izlanish insonni ma'naviy, ahloqiy – estetik kamolat sari etaklaydi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1998 yil 24 fevraldagi 77 sonli qaroridan so'ng respublikamizning barcha viloyatlarida tasviriy, amaliy san'at va xalq xunarmandchiligi ixtisoslashgan kasb-hunar kollejlari barpo etildi.

Bu o'z o'rnida o'zbek xalq amaliy bezak san'atiga jiddiy etibor berishni, ularni xar tomonlama o'rganish, rivojlantirish, yosh avlodlarga san'atning sir asrorlarini o'zlashtirish, ularning estetik didini o'stirish xamda boy madaniy merosimiz, tarixiy an'analarimiz, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, milliy istiqlool g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashni talab etadi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi: Naqqoshlik to'garaklarida uy-ro'zg'or buyumlariga ishlov berish texnologiyasi samarali yo'llakrini ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti: Kasb-hunar kollejlarda naqqoshlik to'garaklari mashg'ulotlarini tashkil etish jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti: Kasb-hunar kollejlarda naqqoshlik to'garaklari mashg'ulotlarini mazmuni, shakli va usullari.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:

- Kasb-hunar kollejlarda o'quvchilarning naqqoshlik to'garaklariga bo'lgan qiziqishlarini aniqlash;
- o'quvchilarning naqqoshlik san'atiga oid bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish;

- Kasb-hunar kollejlariida naqqoshlik to‘garaklari mashg‘ulotlarini mazmuni, shakli va usullari.
- Kasb-hunar kollejlariida naqqoshlik to‘garaklari mashg‘ulotlarini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish.

Bitiruv malakaviy ish metodlari: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar va xalq ta’limi vazirliklarining qarorlari, ko‘rsatmalari, O‘zbekiston Badiy akademiyasi o‘zbek xalq amaliy san’atiga oid hukumatning qarorlari va boshqa me’yoriy hujjatlar, o‘zbek xalq amaliy san’atining milliy an’analari, buyuk olim va pedagoglar, sharq mutafakkirlarining badiy ta’lim-tarbiya haqidagi fikirlari tashkil etadi.

1 BOB. NAQQOSHLIK TO'GRAKLARINI OLIB BORISHNING NAZARIY ASOSLARI.

1.1. Naqqoshlik san'atini milliy an'analar asosida rivojlanishi va taraqqiy etishi.

Milliy naqishlarimiz g'oyatda boy mazmunga ega. Oddiy qoshiq, lagan, quticha, sonliq, belanchak, cholg'u asboblari, uy ro'zg'or buyumlardan tortib turar joy va jamoat binolarining devor hamda shiftlarga solingan insonni hayratga soladi, uni o'ylantiradi.

Bu go'zal naqshlar ajoyib naqoshlar tomonidan yaratilgan bo'lib, asirlar davomida bunyot topdi, rivojlandi, me'morchilik hamda tasviriy san'at rivoji bilan bog'langan xolda takomillashib bordi.

Naqsh-arabcha tasviri gul degan man'oni anglatadi. Qush, xayvon, o'simlik, geometrik va boshqa elementlarni ma'lum tartibda takrorlanishdan xosil qilingan bezakdir. Ganchkorlik, kandakorlik, kashtado'zlikda, zardo'zlik, kulolchilik, zargarlik, gilam to'qish, to'qimachilik va hokazolarda har xil yo'llar bilan ishlanadi. Misol: o'yib chizib, chok yordamida, zarb bilan qadab va boshqa usullarda naqsh solinadi.

Naqqoshlik san'ati insoniyat madaniyati bilan bir qatorda qadiymiydir. Har hil arxeologik qazilmalar shuni ko'rsatadiki naqqoshlik jahondagi barcha xalqlarda qadimdan mavjud ekanligi bizga ma'lum bo'ldi.

Naqqoshlik har bir davlatning o'ziga xos muxitiga: geografik o'rniga, o'lkaning umumlik dunyosiga ko'ra rivoj topdi. M: Arman va Gruzinlarda uzum va uzum bargi, shimol xalqlarida archa va xar xil xayvonlar, qirg'iz va qozoqlarda mol shoxi, tojiklar va o'zbek xalqining naqshlariga qarasak anor, bodom, gullar, qalampir va boshqalarni ramziy naqsh tariqasida ishlatilganligini ko'ramiz.

O'zbekiston territoryasidagi arxealogik qazilmalaridan Xorazm, So'g'd, Baqtriya va boshqa viloyatlardan naqsh san'atining rivojlanganligi ma'lum.

VI-VII asrlarda ibodatxonalar, qasrlar va boylarning uylari o'yma naqshlar hamda tasvirlar bilan bezatilgan. Tantanali marosimlarga mo'njalangan xonalardagi dabdabaliy ajoyib naqsh, rasmlarni ko'rib kishi hayron bo'ladi. Ulardan birini qarasangiz devorlarda bazmi jamshid, ov rasmlar urishi, manzaralar hamda diniy rasmlar tasvirlangan.

Jonli maxluqlar qizil va ko'k ranglar bilan bo'yyab tasvirlangan.

VII asrning oxiri VIII asrning boshlarida O'rta Osiyoni Arablar bosib olishi natijasida qaror topgan islom dini o'zidan oldingi madanyatning ildizga bolta urdi.

Yangi din hamda yangi g'oya O'rta Osiyo Tasviriy san'atiga ta'sirini o'tkazadi. Jonli mavjudotlarni aks etirilishi man etildi. Keyinchalik yuzaga kelgan diniy shaharlar va hodisalar ko'proq murosasiz yo'l tuta borib, qat'iy ravish shunday der edi.

«Tangri yoki odamzot» sur'atini daraxtlar, gullar va jonsiz mavjudotlarni sur'atini soling, aks holda bu narsani buzgan odam gunoxi azim bo'ladi deb qo'rqitganlar.

Jonliy mavjudotlar sur'atini chizish man etilishini ma'nosi shundaki, xudodan boshqa hech kim biror narsa yaratishni u yoqda tursin hatto hudo yaratgan narsani qayta gavdalashtirishni ham mulkini emas va bu uning qo'lidan kelmaydi, aks holda musavir xudo bilan bas baylashib, uning irodasiga shak keltirgan bo'ladi.

Islom talablariga bo'ysunish oqibatida jonivorlar, parandalar va odamlarni tasvirlash yo'qolib borib naqqoshlik rivoj topdi.

Arab yozuvi o'zlashtirildi. Natijada naqshlar bilan unvonli yozuv uslubi paydo bo'ldi. Xullas tasviriy san'at rivojlanadi.

O'rta Osiyoda naqqoshlik san'ati avj olib rivojlandi. Arxitekturada g'isht qalab naqsh solish yuksak darajada rivojlandi, binolarning ichki tomoniga ganch yog'och o'ymakorligining qo'llash yuksak rivoj topdi. Ayniqsa maqbaralarning peshtoqlari devor va ravoqlar ganch-naqshlar bilan juda nafis bezatildi. Naqshlar murakkablashib bordi.

Umarning yangi nusxalarida naqsh ramz, tasvirlar, timsol duo-afsunlar, tasbih va boshqalar naqadar mo'ligini ko'ramiz. Ramziy naqshlar dunyoda sodir bo'layotgan voqealar, tilaklarni aks ettirgan. Har naqshda o'ziga hos ma'no bo'lgan.

Musavvirning tasvirlari bu uning ona tabiatga bo'lgan muxabbatini bildiradi. Uning ranglari o'ziga xos ma'no va xarakterga ega. Naqsh o'zbek madaniyatining hamma bosqichlarida hamroh bo'lib kelgan. Eng oddiy prinsiplari bir-biriga munosiblik, uyg'unlik, yo'sin va usullarini ajoyib, qayta-qayta takrorlashuvidir. Xalq naqqoshlari naqshlarning xar detaliga aloxida e'tibor berib, uning tabiiyligini yo'qotmagan, har bir element ustida puxta fikr yuritganlar. Har bir naqsh negizida ma'lum ramziy ma'no singdirilgan. XI-XII asrlarda O'zbekiston hududida arxeologik topilmalar shuni ko'rsatadiki, naqshlar ichida geometrik naqsh ko'p ishlatilgan.

Xalq rivoyatlariga ko'ra, me'mor bu minorani qurgan-u, ko'zdan g'oyib bo'lgan. Imorat yaxshi cho'kib, o'rnashib terilgan yaxlit toshga aylangandan keyin me'mor paydo bo'lib pardoz ishlarini boshlagan.

Xalq rivoyatlariga ko'ra XIII asrda CHingizxon xukmronligida milliy san'at bir muncha izdan chiqqan bo'lsada lekin butkul yo'q qilinmadi. Temur va temuriylar davrida esa o'zbek milliy xalq amaliy san'ati yuksak darajada rivojlandi.

Temuriylar xongligida hunarmandchilik yuksak darajada rivojlandi. U bosib olgan (erda) erlardagi hamma ustalarni Samarqandga yig'di.

XIV-XV asrlarda koshinkorlik rivojlandi. Qurilgan binolar koshin va parchinlar bilan bezatish avj oldi. Koshin va parchinlardan ajoyib naqshlar hosil qilishga erishildi. CHunonchi, Oq saroy To'rabekxoni maqbarasi va boshqalar.

Kundal-arxitektura devorga bo'rtib ishlangan bezak texnikasi. Me'morchilikda keng tarqalgan. Mo'yqalam bilan devorga surtilgan qizil kesak bo'rtma shakl oladi, ustidan bo'yoq va (zaharli) zarxal beriladi. Zomin zarxalga, asosiy bo'rtma naqsh elementlari turli-tuman ranglarga bo'yaladi. XV asrdan

boshlab Samarqanddagi Ashratxona maqbarasi baland maschitida jozibador namunalar saqlangan.

O'rta erda kundalik texnikasidagi bezaklar keng tarqalgan.

XVI-XVII asrga kelib syujetli rasmlar deyarli chizilmay, balki kunda ustida naqshlar bilan bezash rivoj topdi.

O'rta Osiyodagi naqqoshlik san'atining rivojlanish tarixi bosib o'tgan yo'llari hozirda bizgacha saqlanib qolgan turlari naqshning lug'aviy ma'nosi, Islom dinining san'atga, ya'ni tasviriy san'tga qo'ygan talablarini ko'zda tutilgan. Natijada O'rta Osiyo naqqoshligiga, tasviriy san'atga ta'sir ko'rsatgan. Naqqoshlik san'atida ko'rsatilgan xar bir mamlakatning naqshida o'ziga xos xususiyatlari, bezaklari va urf-odatiga xos naqshlari mavjud edi. SHu mavzudan olgan tushunchani naqqoshlikning o'ziga xos usulda dunyoda, O'rta Osiyoda keng tarqalganligini guvoxi bo'lamiz.

1.2. Naqqosh ustalarni milliy me'morchilikni rivojlanishiga qo'shgan xissalari.

O'zbek xalqining qarovsiz yot madaniy durdonalari, tarixiy yodgorliklarini saqlash va madaniy merosini to'plashni davlatimiz, o'z zimmasiga oldi. Madaniy yodgorliklarini saqlash jamiyati tuzildi.

Naqqosh ustalari ham boshqa ustalar qatori masjid, madrasa turar joylarni, saroylarni ta'mirlashni boshlab yubordilar.

O'ttiz yillardan so'ng ko'pgina jamoat uylari, choyxonalar, madaniyat badiiy merosini ilxomlanib ajoyib devoriy rasmlar yaratdilar.

O'zbek xalqi 2000 yil davomida xalq amaliy san'atini shunday amaliy na'munalarini yaratdiki barchani lol qoldirib kelmoqda.

Naqqoshlar o'zlarini yuksak badiiy maxoratini va nazokati bilan uylari va ganch bilan bezatila boshlandi.

1939 yilda Samarqand va Buxoroni eng yaxshi ustalaridan 12 kishi Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi binosini ajoyib naqqoshlar bilan bezatdilar.

40-yillarda qurilgan Muqumiy, Navoiy teatrlari binolari ajoyib naqqosh, ganch va yog'och o'ymakorliklari bilan bezatildi. Naqqoshlik san'atini bezatishda ajoyib xalq ustalari Farg'onalik Saidmaxmud Norqo'ziev, Toshkentlik To'xtaxo'jaev, Olimjon Qosimjanov, YOqubjon Raufov, Jalil Xakimov, Xivalik Abdulla Boltaev, S.Xudayberganov, X.Raximov, Samarqandlik Jalol va Bolta Jalilovlar, Usta Muxammadjon YUsupovlar va boshqalar hamda shogirdlari yaratgan asarlar hozir ham xalqqa xizmat qilyaptilar.

Ular o'zbek naqqoshlarini elementiga yangicha elementlar (o'roq, bolta, kabgur, paxta, yulduz va yangicha) g'oyalar kiritdilar. Ular zamonaviy binolarga moslab o'zbek majnuntol nihollari, anor butog'i, gulli butog'i va boshqa o'simliklarni tasvirlaydilar. Naqqoshlar o'zlarining yuksak badiiy maxorati va nazokati bilan bugungi kunda xam kishilarni xayratga soladi.

Xiva, Qo'qon, Buxoro xonliklari davrida xalq amaliy san'ati ustalari shu shaxarlarga yig'ila boshladilar.

Ko‘pincha Farg‘ona va Buxoro naqqoshlari Samarqandga, Qo‘qon, Marg‘ilon ustalari, Toshkentga kelib ko‘pgina binolarni bezatdilar. U esa naqqoshlik Samarqandga, Qo‘qon, Marg‘ilon ustalari, Toshkentga kelib ko‘pgina binolarni bezatdilar. U esa naqqoshlik maktabini yanada rivojlanishiga o‘ziga xos kompozitsiyalar yaratishga, ranglar majmuasini yanada boyitishga juda katta rol o‘ynaydi. Lekin bu naqshlar bir biriga o‘xshasada, xar bir shaxar va xar bir ustani o‘ziga xos rang majmuasi, koloriti, uslubi, kompozitsiyasi jixatidan farq qiladi.

Agar biz XX asrda yaratilgan naqshlarni kuzatsak, har birini o‘ziga xos naqqoshlik maktablari yaratilganini ko‘ramiz.

Toshkent naqshlari o‘zining nafisligi va ranglarning bir-biriga asta-sekin o‘tishi aniq bir kaloritga qat’iy rioya qilinishi geometrik va o‘simliksimon naqshlarning ko‘p ishlatilishi bilan ajralib turadi. Naqshlar ko‘pincha yashil gammada ishlanadi. O‘simliksimon naqshlardan oygul, paxta bofta, uch barg, shukufta bargli gul va boshqa elementlar aniq etishtirilgan. Murakkab geometrik naqshlar ishlanadi. Naqqosh ustalardan Jalil Hakimov, Toir To‘htaxo‘jaev, Olimjon Qosimjonov, YOqubjon Raufov, Anvar Ilhomov, Komil Karimov va boshqalar Toshkent naqqoshlik maktabining asoschilaridir.

YOqubjon Raufov 1888 yil 22 yanvarda O‘rtatepa shahrida naqqosh ustazoda oilasida dunyoga keldi. YOqubjon tug‘ilgan O‘rtatepa shahri yog‘ochga naqsh ishlash san’ati bo‘yicha mashhur edi. Uning otasini Rauf kalon deb atashardi. Rauf kalon iste’dodli doimo yangidan yangi naqshlar kashf etuvchi shiftlarga va devorlarga o‘ng‘aylik bilan gullar soluvchi hamda ustun va kursilarni murakkab jimjimador naqshlar bilan bezovchi katta san’atkor bo‘lgan. SHuning uchun ham ustrasini hurmat qilib Rauf kalon deb laqab qo‘yganlar. Rauf kalonlar sulolasi asosan me’morchilik inshootlariga milliy an’anaviy naqshlar berish bilan mashhur bo‘lib kelganlar. Yoqubjon ustozini Rauf Nazarovning talantini me’ros qilib oldi. YOqubjon otasidan nasldan-naslga o‘tib kelayotgan naqqoshlik texnikasini mukammal o‘zlashtirdi. U otasi boshchiligida O‘rta Osiyoning turli shaharlarini chunonchi Namangan, Marg‘ilon, Andijon, Leninobod, Kattaqo‘rg‘on, Samarqand, Toshkent va shu singari shaharlardagi jamoat binolarini bezadi. U avval otasiga

shogird, keyinchalik yordamchi bo‘lib ishlab yurdi. 18 yoshidan boshlab naqqosh usta sifatida bezak ishlarida mustaqil qatnashdi. U yoshlik chog‘larida juda ko‘p mutolaa qildi hamda arab yozuvini o‘rganib oldi. Tinimsiz izlanishlar natijasida naqsh sirlarini o‘rgana bordi. Yoqubjon shaharma shahar yurib turli masjid, mehmonxona, uy va ayvonlarning shifti, peshtoqi va ustunlarini naqshlar bilan bezadi. U birinchi bo‘lib Farg‘ona vodiysidagi binolarni mustaqil bezadi. Uni nomi tez orada ko‘pchilikka tanildi. Yoqubjon Raufovning turli shaxarlarda taklif qilishadigan bo‘ldi.

Usta muzeylarni, turar joy, jamoat binolarni madaniyat uylarga sayqal berdi. U arxitektura yodgorliklaridagi naqshlarga qayta jon bag‘ishladi. Birinchi vaqtlarda Tojikistonda keyinchalik esa 1923 yilda Toshkentga ko‘chib kelgan. Yoqubjon Raufov naqqoshlik san‘atini to‘la to‘kis egallagan. Naqqosh nomini olgan mustaqil usta edi. U Toshkent xonalarida ishlash bilan birga amalda qo‘llaniladigan uy-ro‘zg‘or buyumlariga, ya’ni qutichalar, ko‘p raxli xontaxta kursi, qalamdon stol va boshqa uy ro‘zg‘or buyumlariga naqsh chizdi. Natijada san’atkorning bunday san’at asarlari har xil ko‘rgazmalarida namoyish qilindi. Usta naqqosh san’atkorning nomi jumhuriyatimizda hurmat bilan tilga olinib boshlandi. 1934 yilda Toshkentdagi ishlab chiqarish rasomchilik korxonasiga ishga taklif qilingan, keyinchalik shu dargohda naqqoshlik bo‘limida dars bera boshladi. Bu uquv ustaxonasida yoshlarga o‘rgatdi. Sirkorlikda o‘ziga xos jixatlarini egallagan iste’dodli shogirdlari hozir uning ishlarini muvaffiqiyatli davom ettirmoqdalar.

Jalil Xakimov 1920 yili Toshkentda usta oilasida dunyoga keldi. U yoshlik chog‘larida otasi bezayotgan patnis, idish-tovoqlar va boshqa narsalarga gul solishni soatlab kuzatib o‘tirar edi, uni qandaydir sehrli kuch o‘ziga tortar edi. Asta sekin yosh Jalilda xalq amaliy san‘atini turlariga, ayniqsa, naqqoshlikka bo‘lgan xavasi yanada oshib bordi. U asta sekin qog‘ozlarga har xil naqsh elementlarini chizishni o‘rgandi, otasi esa unga yordam berar edi.

Yillar o‘tishi bilan naqqosh usta bo‘lishi orzusi tug‘ildi. O‘sha vaqtda Toshkentda 1934 yili Badiiy o‘quv ishlab chiqarish korxonasi ochildi. Bu

korxonada o'zbek xalq amaliy san'atining naqqoshlik, ganchkorlik, kulolchilik va boshqa turlari bo'lajak xalq ustalariga o'rgatila boshlandi. Jalil xali maktabni tugatmagan edi. Nihoyat 1935 yili maktabni tamomlab, shu korxonaga naqqoshlik bo'limiga o'qishga kirdi. Korxonaga o'sha yillarda jumxuriyatimizda ko'zga ko'ringan xalq ustalari Usta SHirin Murodov, Olimjon Qosimjonov, Mahmud Usmonov, Toshpo'lat Arslonqulov va boshqalar xalq amaliy san'ati sirlarini yoshlarga o'rgatishga taklif qilingan edi. Jalil eng ko'zga ko'ringan katta ustalardan biri Olimjon Qosimjonov (1878-1952) qo'lida naqsh sirlarini o'rgana boshladi. Bu yosh bo'lg'uvchi usta Jalil uchun katta baxt edi. Chunki ustoz ularga faqat naqqoshlik sirlarini o'rgatib qolmay, balki ta'lim-tarbiya berishda muxim rol o'ynadi. Keyinchalik ustoz Jalilga nozik va ma'suliyatli vazifalarni xam ikkilanmay topshiradigan bo'ldi. Ustozi Olimjon Qosimjonovni juda xurmat qilar, uning chizayotgan yoki bo'yayotgan xar bir ishini butun vujudi bilan berilib o'rgatar edi. Ustoz shogirdini kelajakda katta usta bo'lishiga to'liq ishonar edi. 1938 yili Jalil Xakimov badiiy korxonani tugatib, naqsh sirlarini yanada chuqur bilish uchun Toshkentdagi kulolchilik zavodiga ishga kirdi. U erda ko'pgina xalq amaliy san'ati ustalri bilan yaqindan tanishib ijodiga ijod qo'shildi.

Jalil Xakimov mustaqil ravishda katta-katta jamoat uylarini naqshlar bilan bezashda qatnashdi. Ota-bobolarimizni qadimdan yaritib kelgan naqshlarini qayta tiklashda xam qatnashdi va ularga qayta jon baxsh etdi. Bu esa ustaning qadimiy asarlarni yanada chuqur o'rganishga yordam berdi. U san'at sirini kelajak avlodga etkazish maqsadida maktab qoshida naqqoshlik to'garigi tashkil etib, yoshlarga o'z xunar sirlarini o'rgatdi. Moxir pedagog o'quvchilarga xalq amaliy san'atiga bo'lgan qiziqishini, xunar o'rgatishda, ularning hayotdagi va voqeilikdagi bo'lgan estetik munasabatini hamda shu san'at asarlarini o'z qo'llari bilan yarata olishga o'rgatdi. Usta tabiatdagi gul, bog'u-bo'stonlarni, g'am-g'ussani, hayotdagi go'zallikni naqsh orqali gapirish alifbosini o'rgatdi, naqsh elementlarini xar birini o'ziga xos ramziy mazmunga ega ekanligini, ularni qalimda engil, erkin, ravon va xar bir chiziq jonli chiqishini talab qildi. Ranglarni bir-birga monant olishni havo perespektivalarga amal qilishni yoshlarga o'qtirdi. Xar bir naqshni tabiiy

chiqishiga chaqirdi, chunki xar bir naqsh elementi jonli tabiatdan olinganligini ko'rsatib ketdi. Ijodkor tinimsiz mehnati va yana mehnat qilish kerakligini o'qtirdi.

1948 yili Toshkentdagi N.Ostrovskiy nomli pionerlar saroyida naqqoshlikdan to'garag olib bordi. U yoshlardan o'z tajriba va bilimni ayamadi.

2. BOB. NAQQOSHLIK TO‘GRAKLARIDA UY-RO‘ZG‘OR BUYUMLARIGA BADIY ISHLOV BERISH TEXNOLOGIYASI.

2.1. To‘garak mashg‘ulotlarida naqqoshlik hunarini usta-shogird an‘analari asosida o‘rgatishining o‘ziga hos tomonlari.

Hunarmandchilikka o‘rgatishda sharqona an‘analarni tiklashning eng muhim bosqichlaridan biri shu an‘analarda xalq kasbiy pedagogikasining zaruriy va qimmatli jihatlarini yuzaga chiqarish hamda hozirgi zamon pedagogik tizimda qo‘llash imkoniyatlarini aniqlashdan iboratdir.

Aytish lozimki, biz o‘rgangan adabiyotlar (qomusiy olimlarning ishlari, san‘atga oid, metodik adabiyotlar), shuningdek, bizning muammomizga yaqin tadqiqot ishlari bizga ta‘lim tamoyillari, shakllari va metodlari haqida umumiy tasavvur berdi. Biroq, bu ishlarda biz badiiy hunarmandchilikka o‘rgatish muammolarini tadqiq qilishda ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan ayrim savollarga javob topmadik. Xususan: qaysi yoshda bolalar shogirdlikka berilgan? Hunarmandchilikning badiiy turlariga o‘rgatish muddati qancha bo‘lgan?

Bu va boshqa savollarga asosan Andijon, Samarqand, Xorazm va Toshkent shaharlaridagi xalq hunarmandchiligi (yog‘och o‘ymakorligi) ustalari bilan olib borilgan ko‘p sonli suhbatlar, shuningdek, ularning oila sharoitidagi badiiy hunarmandchilik ishlab chiqarishdagi ijodiy va pedagogik faoliyatini uzoq vaqt mobaynida kuzatishlar natijasida javoblar olindi. Bu sharoitlarning tarixan shakllangan sharoit bilan bir xil bo‘lishi yuqori darajadagi ijodiy izchillik va hunarmandchilik an‘analarining o‘zgarmasligi natijasida erishiladi.

Hozirgi xalq ustalariga o‘tmish hunarmandlari an‘analarining davomchilari va ixlosmandlari sifatida qarab, ular o‘z faoliyatlarida xalq ustalarining ko‘p asrlik ijodiy tajribalarini eng to‘liq va aniq aks ettiradilar, deb hisoblaymiz.

Ma‘lumki, xalq hunarmandchiligi ustalarining farzandlari asosan o‘zlarining shogirdlari bo‘lishgan: chetdan shogirdlikka bolalar kam qabul qilingan.

An‘anaga ko‘ra, hunarmandlarning yosh avlodining ta‘lim va tarbiyasi asosan oilada amalga oshirilgan. Hunarmand o‘z kasbiy mahoratini takomillashtirish ustida ish olib borib, hunarmandchilik ishlab chiqarishi bilan shug‘ullanib, bir

paytning o'zida o'z farzandlarini tarbiyalagan va ta'lim bergan, ya'ni ikkita vazifa: hunarmandchilik ishlab chiqarishi ustasi va pedagoglik vazifasini bajargan, bu esa ular faoliyatiga xos xususiyat bo'lgan. U, o'z farzandlarini mustaqil hayotga tayyorlay turib, to'plangan tajriba, bilim va mahoratni avloddan avlodga etkazishni ta'minlab, o'ziga o'rinbosar tayyorlagan.

Xalq ustalari bilan o'tkazilgan suhbatlar va ularning pedagogik faoliyatini kuzatish bolalarni o'qitish bosqichlari, shuningdek, o'qitishning mazmuni, tizimi, tamoyillari, shakli va metodlarini aniqlash imkonini berdi.

Birinchi bosqich (7-8 yoshgacha). Bolalar ilk yoshligidan boshlab mahsulot nimaga va qanday tayyorlanishini otasidan bilishgan va o'zlari bevosita ko'rishgan, bezak berish jarayonini kuzatishgan. Bolalar o'z qiziqishini qondira borib, otalari ishini kuzatib, ish jarayonining har bir mayda-chuydasini ko'rishgan va oxirida ular ongida bu odatdagi jarayonga aylangan. SHu bilan birga, ular hunarga katta qiziqish bilan qarashgan, mehnatning hayotiy zarurligini anglab va sezib etishgan, bu esa bolani o'qishga va oilaning mehnat maromiga jalb qilishning yaxshi sharti bo'lib hisoblanadi.

Bolalar zaruriy asbob bilan tanishishgan, pichoq, mo'yqalam, bolg'acha, keskich va boshqa qurollarni to'g'ri ushlashni o'rganishgan. Ota bolaning qo'liga ish qurolini bergan, bu asbob bilan "asosiy vazifasi bo'yicha o'ynashga" yordam bergan, asboblarni ushlashga va ularni sezishga o'rgatgan, bu esa o'qishning keyingi davrida katta rol o'ynagan. Ota o'yin jarayonida bolaning o'zi uchun foydali, bilim beradigan narsani olishiga harakat qilgan. Bola o'yinining bu tarzda tashkil qilinishi ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan. Usta ongli ravishda asbobni ushlagan bola qo'lining uyg'un, maqsadli va bir maromdagi harakatlanishini rivojlantirgan. Bolalar yosh paytidan boshlab bir xildagi (aniq ishlarni bajarish bilan bog'liq bo'lmagan) harakatlarni takrorlash, qo'llarining va barmoqlarining yoyilishini boshqara bilishgan. Bezak berish jarayonini kuzatish paytida bolada ko'z xotirasi va naqshning qanday unsurlardan tarkib topishini tushunish rivojlangan. Hali ongli harakatlar bo'lmasa ham, bola o'zi chizishga, bo'yashga harakat qilgan. Uni nimanidir chizish, qandaydir bo'yash istagi qamrab

oladi. Bu o'qish davrining asosiy vazifasi qo'l harakatlari ma'nosini tushunishga olib kelishdan iboratdir. Bu keyingi haqiqiy, qizg'in o'qish jarayoniga bo'lgan o'ziga xos tayyorgarlik mashqidir.

Bolalarning hunarga bo'lgan qiziqishining maqsadli tarzda shakllanishi mazkur bosqichga xosdir va ishontirish, tushuntirish va (hunar o'rganish zarurligi haqidagi) suhbat metodlarini o'z ichiga qamrab oladi.

O'qitishning mazkur bosqichini umumlashtira turib, biz uni shartli ravishda "bolalarning shogirdlikka axloqiy jihatdan tayyorlanish bosqichi" ("tasodifiy shogirdlik") deb belgiladik. Bu bosqich asosida hunar orqali o'ziga xos tarbiyalash amalga oshiriladi. Bu bosqich bolaning oilaviy hunarmandchilik muhitiga kirish bosqichi sifatida qaralishi mumkin.

«SHogirdlik» bosqichi (7-8 yoshdan 13-14 yoshgacha). Hunarmand farzandlarining qiziqishlari va taqlidchilikka ishtiyoqlariga asoslangan holda bu qiziqishlarni rivojlantirgan va bolalarni asta-sekinlik bilan hunarga o'rgata borgan. O'qishning bu davri ibtidosida bola hunarmand qo'l ostida bo'lgan asboblarning nomlarini va nimaga ishlatilishini bilib olgan. Badiiy hunarmandchilikda ishlatiladigan xom ashyoning turli xillari bilan tanishgan. Badiiy hunarmandchilik, uning texnologiyasi va ish usullari haqida to'liq tasavvurga ega bo'lgan. SHundan keyin bola asta-sekin asboblarni ishlatishga o'rgangan va mehnatning dastlabki unsurlarini o'zlashtirgan. U xom ashyoning sifatini farqlashni, ranglar uyg'unligini to'g'ri va did bilan tanlashga o'rgangan. Bolalar kuchlari etgan ishlarga jalb qilingan. Mehnatning har bir an'anaviy turi bolalarni ma'nan boyitgan, kuchi etgan ishlarni bajarish ko'nikma va malakalarini shakllantirgan. Ularda asta-sekin mehnatga ko'nikish, va eng muhimi, unga muhabbat shakllangan.

Usta, bolalarni haqiqiy mehnat faoliyatiga jalb qila turib, unga eng muhim ko'nikmalarni – ijod qilish, yaratish va fikrlash ko'nikmalarini singdirgan. Xalq ustasi bu bosqichda bolaning badiiy hunarmandchilikka bo'lgan shaxsiy qobiliyatini aniqlashga e'tibor beradi, bu esa o'qitish jarayonini to'g'ri tashkil etish uchun zarurdir.

7-8 yashar bolalar buyumni tayyorlash va bezash jarayonini kuzatib va o'rganib, uni hayajon bilan qabul qiladi, u yoki bu dastlabki tushunchalarni osongina egallaydi. Ustoz-otaning ta'sirida unga o'xshash istagi tug'iladi. Bolalar ilk yoshligidanoq, otasining ish uchun qancha kuch va vaqt sarf qilishini kuzatib, badiiy hunarmandchilikning zahmatli ishiga ruhan tayyorlanishadi.

Bolalarning keyingi tarbiyasi va ta'limida (bolaning yoshi kattalashgan sari) murakkabligi va ishlab chiqarishdagi ahamiyati jihatidan farqlanadigan mehnat topshiriqlari berib boriladi. Bevosita badiiy-hunarmandchilik ishlab chiqarishi haqida. Xalq badiiy hunarmandchiligida bilish, ijod va mehnat jarayonlari chambarchas bog'lanib ketadi. Mehnat topshiriqlari bolalarga buyumlarning tuzilish shakllari qonuniyatlarini, xom ashyo, rangning imkoniyatlarini chuqur bilishga imkon beradi.

Ustozlar bilan o'tkazilgan suhbatlar shuni ko'rsatadiki, aynan mehnat topshiriqlarini bajarish jarayonida bolalarning qobiliyatlari ochiladi, badiiy hunarmandchilik bilimlari, ko'nikmalari va malakalari shakllanadi. 10-12 yoshga etganda ta'lim oluvchilarda badiiy-hunarmandchilik ishi sohasidagi bilim va ko'nikmalari mustahkam bo'la boradi. Ularda qat'iy diqqat, taqqoslash va qiyoslash ko'nikmalari shakllanadi.

Bolalarning badiiy hunarmandchilikka ijodiy jihatdan yondashuvga intilishlarini ustalar ularning rasmlarni, turli ranglarning shaklga keltirishi ma'lum uslub va hajmini uyg'unlashtira bilishlariga, yorug'lik va soyadan foydalana bilishlariga qarab aniqlashgan.

Ish usullarini ko'rsatish va tushuntirish, otaning namuna bo'lishi va unga taqlid qilish badiiy hunarmandchilikning bu davri boshidagi etakchi metodlaridan hisoblanadi. Ota tomonidan sifatli qilib ishlangan buyum bola uchun ko'rgazmali namuna bo'lib hisoblanadi. O'qitish narsalar bo'yicha va amaliy ko'rinishda olib boriladi. O'quvchilarning asta-sekin va ketma-ket tarzdagi faoliyati hunarga o'rgatishning muhim sharti bo'lib hisoblanadi.

Ta'kidlash lozimki, ayrim ish usullarini va amallarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchi to'laqonli mahsulot emas, balki turli kichik buyumlar tayyorlashadi. Bu

buyumlar muayyan ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchungina mo'ljallangan bo'ladi. Bolalarda ko'nikma va malakalarni mustahkamlash turli mehnat amallarini tez-tez takrorlash orqali amalga oshiriladi. O'qitish mazmuni va uning izchilligi bevosita ma'lum buyumni tayyorlashdagi texnologik jarayon izchilligi bilan belgilanadi.

Badiiy hunarmandchilikka oila sharoitida o'qitish oilaviy badiiy-hunarmandchilik ishlab chiqarishiga o'xshagan holda "aylanma" tabiatga ega bo'lib, quyidagi ketma-ketlikda bo'ladi: buyumni tayyorlash usullariga o'rgatish (hunar mehnati); tayyor buyumni bezash. "Aylanma" tabiatga ega bo'lgan o'qitish jarayoni (ishlab chiqarish sikli mazmuni ta'siridagi) o'quvchilarning oldin egallagan bilim va ko'nikmalarining mustahkamlanishini ta'minlaydi, bu esa o'z navbatida mahoratning takomillashuviga yordam beradi.

Badiiy hunarmandchilik ustalari, o'qitishning avloddan avlodga meros bo'lib o'tadigan, asrlar davomida shakllangan va uning ketma-ketligini belgilaydigan "dasturi"(mazmuni)ga ega bo'lgan holda o'qitish muddatini hech qachon cheklamaganlar. Muddat umuman ham, ayrim ish usullari (mavzulari) bo'yicha ham chegaralanmagan. O'quvchilarning keyingi "mavzular"ni o'rganishga o'tish muddati, ko'p ustalar fikriga ko'ra, oldingi o'quv materialini sifatli o'zlashtirishiga bog'liqdir. SHunday qilib, oila sharoitida badiiy hunarmandchilikka o'rgatish bolaning shaxsiy qobiliyatlarini va yosh imkoniyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

SHu bilan bir vaqtda, bir necha ish usullarini sifatli tarzda egallash o'spirinni xalfa sifatida asta-sekin va ketma-ketlik bilan hunarmandchilik ishlab chiqarishiga jalb qilish uchun imkoniyat deb qaralgan. O'spirin badiiy-hunarmandchilik ishlab chiqarishida o'z ishtiroki hajmini ko'paytirish uchun turli amallarni o'zlashtirishdan manfaatdordir. SHogirdlikka muayyan ko'nikmalarga ega bo'lgan, usta tomonidan oson tuzatiladigan kichkina xatoliklarga yo'l qo'yish ehtimoli bo'lgan bolalar qabul qilingan. Xalq ustalari bolalarni xalfa sifatida hunarmandchilik ishlab chiqarishiga jalb qilish o'qitish jarayonining davomi va

bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni takomillashtirishning eng samarali usuli hisoblashadi.

SHogirdlik bosqichi (13-14 yoshdan 18-20 yoshgacha). O'qitishning bu bosqichida o'spirinning shogirdlik ro'ida oilaviy ishlab chiqarishdagi ishtiroki hajmi sekinlik bilan o'sib boradi. Agar shogirdlik davrida o'spirin ayrim texnologik amallarnigina bajargan bo'lsa, bu bosqichda, mehnat amallarining (buyumni tayyorlash va bezash texnologiyalari bo'yicha ko'zda tutilgan) barchasini u yoki bu darajada o'zlashtirgan bola ishlab chiqarishda to'laqonli ishtirok etadi. Badiiy hunarmandchilik ta'limi va tarbiyasi tizimi shunday tuzilganki, hunarmandchilik ishlab chiqarishidagi bevosita ishtirokidan oldin ruhiy va kasbiy tayyorgarlik ko'rilgan, zaruriy sifatlar, shuningdek, bilim, ko'nikma va malakalar shakllantirilgan.

SHunday ekan, bu bosqich shogirdlik bosqichidan shu bilan farqlanadiki, o'qish shogird-xalfaning ishlab chiqarish faoliyati bilan to'liq birligida amalga oshiriladi. O'qish amaliy-majmuiy tizim bo'yicha olib boriladi. "Xalfalik" bosqichidagi o'qishning maqsadi shogirdlarning oldin egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish.

Ustaga yordamlashib, o'spirin badiiy-hunarmandchilik ishlab chiqarishining barcha texnologik jarayonlarida ishtirok etadi. SHogird ishni ustaning sinchkov kuzatuvi va nazorati ostida bajaradi. Usta, zaruriyat bo'lsa, u yoki bu ishning qanday bajarilishi haqida maslahat beradi, u yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni to'g'rilaydi. Bu bosqichda o'spirindan texnologik amallarning aniq va sifatli bajarilishi talab qilinadi. 14-16 yoshda o'spirin milliy uy-ro'zg'or buyumlarini mustaqil ravishda tayyorlay bilgan.

O'quvchilarning shaxsiy amaliy ishlari o'qitish jarayonidagi ularning mustaqilligini rivojlantirishning muhim vositasi bo'lib hisoblangan. SHogirdlar mustaqilligini shakllantirish uchun ustozlar bir darajadan murakkabroq darajaga o'ta borib, asta-sekin ishni kengaytirib, murakkablashtirib borishgan. SHogirdlar diqqati tayyorlanayotgan buyumlarning shakliga, turli bezaklar chiziqlarining go'zalligiga, buyumning badiiy-bezakli ifodaviyligiga qaratilgan. SHu tarzda,

shogirdlarda asta-sekin badiiy bilimlar shakllangan va rivojlangan, tayyorlanayotgan buyumlarga go'zallik berish ko'nikma va malakalari singdirilgan.

Oila davrasidagi ishda doimo ishtirok etib, o'spirin ajoyib buyumlar yaratishga o'rganadi, o'z ko'nikmalarining yaratuvchanlik kuchini va o'z mehnatining ahamiyatini anglab etadi, bundan tashqari, u oilaning farovonligi o'zi tayyorlayotgan buyumlar soni va sifatiga bog'liq ekanini tushunishga o'rganadi.

Usta, o'spiringa borgan sari ko'proq mustaqillik berib, unda buyumni tayyorlash va bezash jarayoniga bo'lgan ijodiy munosabatni shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha olib boriladigan pedagogik ishlarni kuchaytiradi. O'spirin mustaqil tarzda yasalajak buyumning xomaki nusxasini va naqsh kompozitsiyasini tuza boshlaydi, buyumni bo'yoq moddalarni to'la tayyorlay boshlaydi, ranglarning eng maqbul uyg'unligini belgilaydi (ijodiy-izlanuvchanlik metodi), o'zi tuzgan kompozitsiya bo'yicha (o'ymakorlik yoki naqshlash usuli bilan) buyumni bezashga boshlaydi. SHogird, odatda, 17-18 yoshda butun loyiha bo'yicha ayrim badiiy-bezakli buyumlarni tayyorlab biladi. SHu bosqichning o'zida shogird badiiy-hunarmandchilik ishlab chiqarishini tashkil etish qoidalarini ham o'rgangan.

SHogirdlik va xalfalik bosqichlari sinovlarini bosib o'tib, 18-20 yoshli xalfa, ustozlari fikriga ko'ra, ruhan va jisman mustaqil faoliyatga to'liq tayyor bo'lgan. Biroq ustalarning farzandlari, odatda, xususiy ishlarini ochishga shoshilmaganlar va birga ishlash uchun otasi hamda katta akalari bilan qolishgan.

Birgalikdagi ish (usta) ota jismonan ishlashga kuchi etguncha davom etgan. Xalq an'analariga ko'ra, uy, mulk, xususan, oilaviy ustaxonalar eng kenja o'g'ilga meros bo'lib qolgan. Bu vaqtga kelib katta o'g'illar allaqachon usta sifatida shakllanib bo'lishgan, o'z farzandlarini va hatto bir necha shogirdlarni hunarga o'rgatib ulgurishgan bo'ladi. Bu o'zining alohida hunarmandchilik ishlab chiqarishini tashkil etish uchun zarur bo'ladi. Ko'pincha bunday bo'linish usta (ota) ning yordamida ancha oldingi davrda katta o'g'illar o'z ishlab chiqarishlariga

ega bo'lib, mustaqil ishlash va moddiy jihatdan o'z oilasini ta'minlay olishlari uchun amalga oshirilgan.

SHu tarzda, usta, o'z otasining ishini davom ettirib, an'ana bo'yicha mahorat sirlarini o'z farzandlariga o'rgatgan va bu bilan bir necha avlodlar o'rtasidagi merosxo'rlikni ta'minlagan.

Oldin aytilganidek, "ustalar" o'z farzandlaridan tashqari, chetdan ham shogirdlar olishgan. SHogirdlik shartlari, bolalarning ota-onalari va hunarmandlarning kelishuviga bog'liq tarzda turli-tuman bo'lgan. Og'zaki kelishuvda, qoida bo'yicha, tekin ovqat, kerakli asboblari, zaruriyat bo'lsa, yotoq joy bilan ta'minlash ko'zda tutilgan; usta nafaqat kasbga o'rgatishga, balki o'z shogirdining umuman tarbiyasi uchun ham javobgar bo'lgan.

SHu bilan birga, o'z farzandlariga ustoz tanlashda ota-onalar bu ustaning shaxsiy mahoratini, jamiyatdagi obro'sini va axloqiy sifatlarini hisobga olishgan.

CHetdan qabul qilinadigan bolalar soni ustaning ishlab chiqarishni qanchalik kengaytirganiga va yo'lga qo'yganiga bog'liq bo'lgan. YUqorida aytilganidek, o'qish jarayonining katta qismi amaliy va amaliy-majmuaviy tizim bo'yicha olib borilgan. SHogirdlarni to'laqonli va samarali o'qitish uchun ustoz ularni ish hajmi bilan ta'minlashi lozim bo'lgan. YUqorida bayon qilingan omillarga bog'liq holda, shogirdlar soni har bir ustada har xil bo'lgan. Bir xil ustalarda, bizdagi ma'lumotlarga ko'ra, bir paytning o'zida 1-2 shogird, boshqalarida 10-12 ta shogird ta'lim olgan.

Usta "chetdan" qabul qilingan shogirdlarini va o'z farzandlarini ham pedagogikada ma'lum bo'lgan "Ustoz shogird" shaklida yakka tarzda o'qitgan. Bir paytning o'zida bir necha (3-4) shogirdning texnologik jarayonning bir xil amallariga o'rgatilishini "brigada-zveno" shakliga nisbat berilishi mumkin, o'qitishning mazmuni va tabiati ustaning o'z farzandlarini o'qitgandagi kabidir. Muhim farq shundaki, "chetdan" qabul qilingan shogird biz "o'z-o'zidan shogirdlik" deb shartli nomlagan davrni chetlab o'tishadi, bu esa o'qitishning boshlang'ich davriga salbiy ta'sir qiladi.

Hunarga uy sharoitida o'qitish jarayonini kuzata turib, biz shuni sezdikki, shogirdlikka bir paytda olingan bolalar o'qitishning turli bosqichlarida edilar. Usta buni shu bilan izohladiki, shogird ishning u yoki bu usullarini o'zlashtirishiga qarab, uning bir amalni bajarishdan keyingisiga o'tish muddati belgilanadi, bu bilan har bir shogirdni o'qitish mazmuni alohida belgilanadi, boshqacha aytganda, usta har bir shogirdning shaxsiy qobiliyatlarini hisobga olgan holda o'qitishni farqlagan holda amalga oshirgan. Bu yana bir marta xalq ustalari o'qitishning hamma uchun umumiy bo'lgan muddatini belgilashmaydi, degan fikrimizni tasdiqlaydi.

Ko'p vaziyatlar ma'lumki, ota-onalar, turli sabablarga ko'ra, o'z farzandlarini ancha cheklangan va oddiy hunarlarga o'rgatish uchun berishgan. Bu vaziyatda shogirdlikka ancha katta yoshdagi (12-14 yoshdan) bolalar berilgan. Bir necha ish usullarini va zarur texnologik amallarni egallagandan keyin ular keyingi o'qishni to'xtatishgan va mustaqil ishlay boshlashgan. Buyumlardan bir turini tayyorlashga ixtisoslashib, ular yashash uchun pul ishlab topishgan. Odamning alohida bir buyumni ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi xalqda «Sandiqchi», «Beshikchi», «Kirmakash» deb nom olgan alohida hunar hisoblangan. Hunarning bu turlariga o'rganish muddati 2-4 yil bo'lgan.

SHu tarzda, bolalarni badiiy hunarmandchilikka shogirdlikka olishdagi yoshida farqlar mavjud bo'lgan. Hunar o'rganish uchun shogirdlikka beriladigan bolalarning yoshi 12-14 yoshni tashkil etgan, o'qish muddati esa 2-4 yilni tashkil etgan. Badiiy hunarmandchilik bo'yicha shogirdlikka beriladigan bolalar yoshi esa o'rtacha 7-8 yoshni, o'qish muddati esa 10 yildan 15 yilgacha bo'lgan.

SHogirdlikka berilgan hamma bolalar ham badiiy hunarmandchilik sirlarini o'rganishavermagan. Badiiy hunarmandchilikka o'rgatish bezak san'ati va hunarmandchilik mehnati bilan birgalikda olib borilgan. Ta'kidlash lozimki, xalq ustalari bezakli rasm chizishga va uni (buyumni o'ymakorlik yoki naqshli bezash usuli bilan) amalga oshirishga o'rgatishgan.

Oldin ta'kidlanganidek, bir paytda shogirdlikka tushgan bolalar o'qitishning turli bosqichlarida bo'lishgan. Bunday farq ko'pincha bolalarning bezak san'atiga

o'rgatish jarayonida namoyon bo'lgan shaxsiy qobiliyatlari natijasida yuz bergan. Badiiy hunarmandchilikka o'rgatish o'quvchidan alohida ijodiy va badiiy qobiliyatlarni talab qiladi. Bu ko'rsatkichlar bo'yicha o'qitishning turli bosqichlarida shogirdlar tabiiy tarzda tanlanib qoladi. Eng iste'dodli, chidamli va tirishqoq o'quvchilar qolishgan.

SHu bilan birga, saralashdan o'tmagan o'quvchilar ishsiz qolib ketishgan. Muayyan hunarmandchilik malakasiga va shuningdek, bezak san'ati bo'yicha ayrim ko'nikmalarga ega bo'lgan bu bolalar faqat hunarmandchilik ishlab chiqarishi bilan shug'ullanishi mumkin. Saralab olingan bolalar esa faqat hunarmandchilikka o'qiyotgan bolalardan bir daraja yuqori turishgan. Bu bolalar tayyorlagan buyumlar o'z nafosati bilan ajralib turgan. Ular faoliyatida baribir sobiq ustozining uslubi, uncha murakkab bo'lmagan bezakli ishlarni bajarishdagi o'ziga xos texnikasi aks etib turadi.

Iste'dodli shogirdlar, shogirdlik bosqichlaridan o'tib, mustaqil tarzda sifat jihatidan ustozining ishlaridan qolishmaydigan badiiy-hunarmandchilik buyumini tayyorlashlari lozim edi. O'quvchining mustaqil tarzda buyumni tayyorlashi kasbiy jihatdan kamolotga etishidagi oxirgi sinovday bo'lib hisoblanadi. «Nomzod»ning mustaqil faoliyat ko'rsatish uchun qilgan ishi quyidagi mezonlar bo'yicha aniqlanadi: mustaqil ravishda naqsh kompozitsiyasini tuzishi, buyumning badiiy jilvagarligi, nafisligi, bajarilish texnikasi, yorug'lik va soya yoki rang tanlashi, xom ashyoning bezakka loyiq sifatlaridan foydalana bilish ko'nikmalari, buyumning shakli va bezagi o'rtasidagi o'zaro aloqa, duradgorlik ishlarining sifati va boshqalar.

SHunisi diqqatga sazovorki, ota-onalari, boshqa xalq ustalari va ularning shogirdlari taklif qilingan. Keksa ustalarning gaplariga qaraganda, shogirdlikni muvaffaqiyat bilan (yoki muvaffaqiyatsiz) tugatishi jamoatga ma'lum qilingan. SHogirdning ishi natijalariga ko'ra nafaqat uning mahorati, balki ustozning pedagogik mahorati ham baholangan, uning obro'si ham o'qitishning muvaffaqiyatli yakunlanishiga bog'liq bo'lgan.

SHogirdlik tugashi bilan o'tkaziladigan mavjud udum va marosimlar (shogirdga hunarmandchilik sohasida omad tilab oq fotiha berish, belbog' bog'lash) yosh hunarmandning voyaga etganligining jamoatchilik tomonidan tan olinishi va uning professionallar muhitiga o'tganligining belgisi bo'lib hisoblangan. «Usta» so'zi hunarmandning xalq tomonidan tan olinganligini aks ettirgan. «Usta» unvonini olish uchun yosh hunarmand keyinchalik ham o'z mahoratini takomillashtirib borishi, bir necha yil mustaqil ish olib borishi lozim bo'lgan.

Hunarmandlar, badiiy hunarmand ustalar xalqning cheksiz hurmatiga sazovor bo'lishgan va xalq tomonidan yuqori baholangan. Ular nafaqat o'z ishining ustalari sifatida namuna bo'lishgan, balki xush axloqligi bilan ham ajralib turishgan. Bu narsa shu bilan izohlanadiki, ular maxsus ishlab chiqilgan axloq, odob me'yorlari va qoidalari (Risola) asosida tarbiyalanishgan. V.A.Mazur «Risola» ning mazmunini tadqiq qilib, ularni hunarmandchilikning kelib chiqish va rivojlanish tarixi bilan tanishish manbasi, shuningdek, hunarmandga kerak bo'lgan axloq, odob va kasb sifatlarini shakllantirish vositasi sifatida ta'riflagan. V.A.Mazurlarning tadqiqotlariga tayanib, biz hunarmandlarning axloq, odob me'yorlari va qoidalari xususida to'xtalishni lozim topdik, chunki bu qoidalarda, bizningcha, yosh avlodni tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari juda aniq aks ettirgan bo'lamiz.

Axloqiy me'yorlar va qoidalar alohida «Usta» uchun va alohida shogirdlar uchun mo'ljallangan.

Hunarmandlarni o'qitishning tashkil etilishini, uning mazmunini, ketma-ketligini o'rganish bizga ularni quyidagi tizimlarga kiritishga imkon berdi:

Predmet tizimi (ba'zan uni buyumlar tizimi deb atashadi). Hunarmandlarni mazkur tizim bo'yicha o'qitish shunday tabiatga egaki, halq ustalari, hunarmandchilik ishlarini ayrim amallarga bo'lmasdan, shogirdlarini turli oddiy buyumlarni yasashga o'rgatganlar. Bu qoidalardan usta-hunarmandlar shogirdlikning boshlang'ich davrlarida foydalanishgan. Haftalar shunday bo'linganki, dastlab shogirdlar ancha oddiy narsalarni yasashgan, keyin ish

astasekin murakkablasha borgan. Mazkur tizimda shogird ustaning ishlarini diqqat bilan kuzatishi va uning ishlariga taqlid qilishi lozim bo'lgan.

Predmet tizimining ijobiy tomoni shu bo'lganki, shogird ma'lum narsaning tayyorlanish jarayonini to'la o'zlashtirgan, o'z mehnatining oxirgi natijalarini ko'ra bilgan. SHu bilan birga, bu tizim bo'yicha o'qish jarayoni ancha uzoq davom etgan.

SHunday qilib, o'qitishning ashyoviy tizimi hunarmandchilik ishlab chiqarishining oddiy ko'rinishlariga xos bo'lgan maqsad va talablarga javob bergan, bo'linmagan texnologiya bu tizimga xos bo'lgan. SHip va eshiklar bezagi uchun qismlar yasash bunga misol bo'lib xizmat qiladi. «Buz», «chet buz», «panjara», «kulcha», «soqa», «tugma», «kokil» kabi har bir qism ko'rib chiqilgan. Biroq buyumlarni tayyorlashning murakkablashib borishi bilan bu tizimning samaradorligi kamayib borgan.

Hunar o'rgatishning amaliyot tizimi ustalar hunarmandchilik ishini amallarga bo'lgandan keyin joriy qilingan. Mazkur tizim bo'yicha o'qitish o'quvchilarning har bir amalni alohida, tezkor mashqlar orqali o'zlashtirishini taqozo qiladi.

SHu bilan birga, uzoq mashq qilish, bir xildagi amallarni bajarish shogirdga salbiy ta'sir qilgan, uning ishga bo'lgan qiziqishini so'ndirgan; mehnatning amallar bo'yicha taqsimlanishi bolalarda oldin shakllangan ko'nikma va malakalarning qisman buzilishiga olib kelgan. Amallar tizimi bo'yicha o'qitish ta'limning eng boshida va qisqa muddatda samarali bo'ladi. Amallar tizimidan uzoq foydalanish, oldin ta'kidlaganimizdek, nafaqat shogirdga, balki yasalayotgan buyumlarning badiiy jilvagarligiga va yaxlitligiga salbiy ta'sir qilgan.

3. O'qitishning amaliy-majmuaviy tizimi. Bu tizim bo'yicha badiiy hunarmandchilikka o'rgatish shu bilan farqlanadiki, o'quv amallari buyumni yasash texnologiyalari bilan bir xil ketma-ketlikda o'zlashtiriladi.

Xalq ustalari, o'qitishning amaliy-majmuaviy tizimidan foydalanib, ish usullarini ham, buyumni tayyorlash texnologiyalarini ham murakkablashtirishni ko'zda tutishgan, bu esa o'qitish jarayonini izchilroq tashkil etishga, shogirdlarda

bilim, ko'nikma va malakalarni samaraliroq shakllantirishga, shuningdek, o'qish muddatini ancha kamaytirishga imkon beradi.

Ta'kidlash lozimki, amaliy-majmuaviy tizim samaralidir va shuning uchun badiiy hunarmandchilikka o'rgatishda etakchi tizim bo'lib hisoblanadi.

O'qitishning eng samarali tizimini tanlash xalq badiiy hunarmandchiligida an'anaviy texnologiyaning etakchi bo'lishini taqozo qiladi, badiiy hunarmandchilik buyumlari majmui texnik va badiiy o'lchamlar jihatidan aniq belgilangan bo'ladi va qo'l mehnati ulushining ko'pligi bilan ajralib turadi. Ana shuning o'zi o'qitishning ashyoviy, amaliy va amaliy-majmuaviy tizimlarining barqarorligini belgilab beradi.

Biz o'qitishning quyidagi tamoyillarini ajratdik:

1. Bolalarni hunarga va hunarmandchilik ishlab chiqarishiga erta jalb qilish.
2. Ta'limning o'quvchilarni axloqiy, estetik, ma'naviy, mehnat (kasbiy) jihatidan tarbiyalashni nazarda tutadigan tarbiyaviy tabiati.

3. Ta'limning hayot bilan bog'liqligi. Buni amalga oshira turib, xalq ustasi o'quvchilarni mustaqil ruhan kasbiy faoliyatga tayyorlaydi va o'qitish jarayonidayoq ularning hunarmandchilik ishlab chiqarishiga moslashuviga erishadi, buning evaziga esa shogirdlarning bilim, ko'nikma va malakalari ancha amaliy tabiat kasb qila boradi.

4. Ta'limning tizimlilik va izchilligi. O'qitish mazmuni va shogirdlik bosqichlari hunarmandchilik ishlab chiqarishi texnologik jarayonining izchilligi bilan belgilangan aniq mantiqiy tarbiga ega va tizimlilik tabiatiga ega. O'qitishning tizimlilik va izchilligiga o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarining asta-sekin kengaytirilishi va chuqurlashtirilishi evaziga erishiladi. Ta'limning ko'rsatilgan tamoyillarini amalga oshira borib, xalq ustalari o'z mashg'ulotlarini shunday tashkil qiladilarki, shogird oldingi amalni o'zlashtirgachgina, keyingisiga o'tsin.

5. Ta'limning ko'rgazmaliligi. Ustalar o'qitish jarayonida o'zlari yasagan buyumlarni keng namoyish qilishgan va shogirdlar ish usullarini sifatli tarzda o'zlashtirishlari uchun ish amallarini ham namoyish qilishgan. Ustaning barcha

sohalardagi (axloqiy, kasbiy va b.) shaxsiy namunasi shogirdlar uchun namuna va eng yuksak timsol bo'lib hisoblangan.

6. O'qitishning osonligi va engilligi. Xalq hunarmandchiligi ustalari o'qitish mazmunini belgilashda shogirdlarning yosh, jismoniy va ijodiy imkoniyatlarini qat'iy hisobga olishgan.

7. Bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishning mustahkamlik tamoyili. Xalq ustalari, shogirdlarini kasbiy faoliyatga tayyorlayotib, ularda puxta bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanishiga e'tibor berishgan. Ularning mustahkamlanishi o'qitishning "aylanma" tabiati bilan ta'minlangan, puxtaligi esa suhbatlar va amaliy sinovlar davomida aniqlangan.

9. SHogirdlarning ijodiy faolligi tamoyili. Badiiy hunarmandchilikning o'ziga xosligi shogirdlarda ijodiy fikrlashni, xayolotni, nafis didni shakllantirishni taqozo qilib qo'yadi.

Ta'kidlash joizki, xalq ustalari o'z shogirdlarining zohiriy imkoniyatlarini va keyinchalik rivojlanish uchun zarur bo'lgan eng yaqindagi ijodiy imkoniyatlarini aniqlay olishgan. Buning uchun shogirdlar oldiga shunday ijodiy vazifalar qo'yilganki, ular o'y, fikrlash, izlanish va sinovlardan keyin mustaqil ijodiy echimlarni topa bilsinlar.

10. Izchillik tamoyili. Xalq badiiy hunarmandchiligiga o'rgatish an'anaviy tarzda hunarmandchilik an'alarining oilaviy meros bo'lib qolishiga va katta avlod tajribalariga asoslangan.

11. Uzluksizlik tamoyili. SHunda namoyon bo'ladiki, xalq ustalari o'qitish jarayonini mehnat va kasbiy tayyorgarlikka ajratmasdan ularga "bolalar va kattalar ta'limining barcha bosqichlarini birlashtiradigan va bog'laydigan yagona, doim harakatda bo'lgan, insonga butun umri davomida hamroh bo'ladigan yagona jarayon" sifatida qarashgan.

Xalq ustalari bilan olib borilgan suhbatlar, ular pedagogik faoliyatini kuzatishlar quyidagi, zamonaviy pedagogikada ham ma'lum bo'lgan o'qitish metodlarini aniqlashga imkon berdi: og'zaki – hikoya, bayon qilish, ko'rgazmali – kuzatish, ko'rsatish, izohlash namuna, ko'chirish, "tayyor namunalar" asosida

o‘qitish; amaliy – topshiriq, mashq, mustaqil ish; nazorat – suhbat, taqqoslash, sinov (“oraliq”, “yakuniy”); ijodiy, izlanuvchanlik.

Tarixiy-mantiqiy tahlil bizga badiiy-hunarmandchilik ta’limi jarayonida o‘z tamoyillariga, metodlariga, ega bo‘lgan va metodik tizim sifatida shakllangan o‘z metodikasi ishlab chiqilganini qayd qilish imkonini berdi.

2.2. Sodda xajmli buyumlarni bezash

Xalq amaliy bezak san'ati o'zining qadimiy va jozibadorligi bilan kishilar qalbidan joy olgan. Ayniqsa naqqoshlik san'ati an'analarga nihoyatda boy. Naqqosh ustalarning ish uslublari rang-barang va serqirraligi bilan ajralib turadi. Naqqosh o'z ishida ranglarning tabiiy jilosidan, bejirim shakllardan, material fakturasidan mohirlik bilan foydalanib, yorqin ifodalikka erishadi.

Insoniyat o'zi zarur hisoblagan barcha kiyim-kechak, ro'zg'or va uy-ro'zg'or anjomlarini doimo takomillashtirib, bezatib keladi. SHu bilan birga, har qanday badiiy bezatilgan buyum va jihozlarning o'z bezatilish usullari, materiallarga ishlov berishdagi o'ziga xos bosqichlari mavjud. Bunday bezak va ishlov berib yasatilgan buyumlar kishilarga estetik zavq bag'ishlab, hayotga bo'lgan munabbatlarini yanada oshiradi.

Ustalarimiz tomonidan sayqal topayotgan zargarlik, pichoqchilik, kashtachilik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorlari, buyumlari nafaqat bugunimiz, balki kelajak avlodlarimizning ham boyliklari, ma'naviy qadriyatlari hisoblanadi. An'anaviy o'zbek naqqoshligida nafaqat binolarni bezash, balki yog'ochdan yasalgan buyumlarga ishlov berish ham yaxshi rivojlangan. Bularga mebellar, sovg'abob buyumlar, musiqa asboblari va uy-ro'zg'or buyumlari ham kiradi. SHuningdek, quticha, xonataxta, kursi, stol-stullar, tuzdon, non idishi, sabzi taxta, qoshiq, lagan, sandiq va xokazolar shular jumlasidandir.

Uy-ro'zg'or buyumlari va jihozlariga badiiy ishlov berish asosan ularga naqsh namunalarini tushurish, pardoqlash kishidan anchagina malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi talab etadi. Zero, yog'och buyumlarini naqshlashda xalq ustalari erishgan yutuqlar benihoya kattadir. Ularning ijod namunalari respublikamiz va chet-ellarda turli muzey, ko'rgazma zallarida, badiiy salonlarda keng namoyish etilib kelinmoqda. Ularning barchasi haqli ravishda yuqori baholar olmoqda. Naqsh san'atida yog'och buyumlariga o'ta mohirlik bilan jilo bergan ustalar O.Qosimjonov, YO.Raupov, J.Hakimov, T.To'xtaxo'jaevlardir. shu jumladan zamonaviy naqqosh ustalarning ham ijodiy ishlari tahsinga loyiq. Ulardan

Mahmud To‘raev, Anvar Ilhomov, Abdulla Akbarov, Hamidulla Isokjonov va boshqalarni misol tariqasida ko‘rsatish mumkin.

Naqshlanadigan buyumlarning shakl-shamoyilini, foydalanishdagi qulayliklarini hisobga olgan holda boshlang‘ich qoralama eskizlari ishlanadi. Hosil bo‘lgan aniq o‘lchamlardagi qoralamlar asosida buyum yasaliib, naqsh kompozitsiyalari tuziladi. Buyumlarni naqshlash jarayonida bir necha amaliy bosqichlar bajarilishi lozim:

- Tayyo bo‘lgan (yasalgan) yog‘och buyumlariga jilvirlash orqali ishlov berish.
- YUza sirtlarini bo‘r va elim aralashmasi (shpaklyovka) yordamida silliqlab chiqish.
- Naqsh kompozitsiyasini buyum sathiga ulgi yordamida tushurish.
- Naqshni ranglash bosqichlarini ketma-ket bajarish.
- Pardoqlash va laklash.

Naqshlanishi kerak bo‘lgan buyumning rang koloriti aniqlangan, ranglash bosqichlari quyidagi tartibda bajariladi:

1. naqsh zaminini ranglash.
2. Naqshning gullari va barglarini turlash
3. Naqshning bandlariga, shakllariga rang berish.
4. Siyoh qalam tortish.
5. Naqshning gullari va barglariga targ‘il tortish.
6. Naqshning oq bandlari va obisini tortish.

YOg‘och buyumlarini naqshlashda mol, obi, siyoh qalam deb ataluvchi turli nomerlardagi yumshoq mo‘yqalamlardan foydalaniladi. Pardoqlash usullari naqshning rang koloritiga asosan qora, to‘q ko‘k, to‘q yashil, jigar rang kabi to‘qroq tusdagi bo‘yoqlar yordamida bajariladi.

YOg‘och buyumlarini laklaganda rangsiz smola, domar va spirtli laklardan foydalaniladi. Laklar asosan kunjut yog‘ va kanifoldan tayyorlangan.

Toshkent naqqoshlaridan Olimjon Qosimjonovning aytishiga ko‘ra, fabrika laki ishlab chiqarilgunga qadar, ustalar egar moyi deb atalagn lakni ishlanganlar. Bu lakning aralashmasi elim (tog‘ o‘simliklarining suvi), kunjut moyi va kanifol

bo'lgan. "Egar moyi" bo'yoqlarning rang tuslarini yanada yorqinlashtirgan va bezatiladigan yuzani darz ketishidan, emirilishidan saqlagan.

YOg'och buyumlarni naqshlash uchun quyidagi asbob-uskuna va materiallar kerak bo'ladi. Jilvir qog'oz, shpatel, bo'r, duradgorlik elimi, pista ko'mir, doka, xitoy qog'ozi, igna, alif, lak, tilla va kumushdan tayyorlangan hallar, 1-20 nomerli mo'yqalamlar va boshqalar.

Naqsh ishlash uchun qayin, qora qayin, qarag'ay, nok, yong'oq, DSP va boshqa yog'ochlar tanlanadi. YOg'och buyumlarini naqshlash uchun yana shpaklyovka, xoka va axta tayyorlanadi.

Naqqoshlikda ishlatiladigan bo'yoq turlari quyidagilardan iborat: quruq bo'yoq, guash, akvkrel, emulsiyali bo'yoq, mineral bo'yoq, tempera bo'yoqlari. YOg'och buyumlarini naqshlashda eng ko'p qo'llaniladigan bo'yoq – guashdir. Rang tuslarini tayyorlashda oq bo'yoqni boshqa bo'yoqlar bilan aralashtirib, kerakli rangni topa bilish muhim ahamiyatga egadir. SHuningdek, guash bo'yoqlari zarur quyuqlikda va nafis tiniqlikda tayyorlanishi lozim. YOg'och buyumlariga badiiy ishlov berishda avval buyumni jilvir qog'ozi bilan jilvirlab chiqish kerak bo'ladi. So'ngra, unga alif moyi yoki duradgorlik elimi surtiladi. Buyum yuzasini yanada tekislash, silliqlash maqsadida maxsus qoplama (shpaklyovka) ham surtiladi. U quriganidan so'ng, mayda donali jilvir qog'ozi bilan buyum sirti yana bir bor silliqlanadi. Buyumga axta va ulgi yordamida oldindan tayyorlangan naqsh kompozitsiyasi tushiriladi. Buyum sathidagi naqshlar ranglanib, pardoiz beriladi. So'ng u quriganidan keyin, rangsiz lak bilan chiqiladi.

SHpaklyovka naqshlanadigan sirtlarga silliqlab, tekislash uchun qo'llaniladigan maxsus quyuq massa. U bo'r (mel), yog'och elimi, alif moyi, suv, sovun kabi moddalarni qo'shgan holda aralashtirib tayyorlanadi. Qoplama (shpaklyovka)lar tarkibida qo'llanilgan moddalariga ko'ra elimli va moyli deb yuritiladi. Moyli qoplama tarkibiga alif qo'shilganligi sababli ana shunday ataladi. Undan moybo'yoqlar ishlov beriladigan sirtlarni silliqlashda foydalaniladi. Elimli shpaklyovka devor sathlarini pardoizlash uchun mo'ljallangan bo'lib, uning ustidan suv bo'yoqlari surtiladi.

Xoka tayyorlash: surup mato yoki dokaga chala yongan yog'och (pista) kukuni ezib solinadi va u xaltacha tugib qo'yiladi.

Axta – ya'ni ulgini tayyorlash quyidagicha bajariladi: shaffof (kalka) qog'oz tanlangan naqsh kompozitsiyasining bo'laklariga mos ravishda buklab chiqiladi va uning faqat bir bo'lagi chizib olinadi. So'ng, buklangan qog'oz qavatlari igna bilan yalpisiga teshib chiqiladi. Buklangan qog'oz qati yozilganidan so'ng esa yaxlit naqsh kompozitsiyasining hosil yordamida naqsh tasvirini tushurish mumkin.

3. BOB KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA NAQQOSHLIK TO'GARAKLARIDA UY RO'ZG'OR BUYUMLARIGA BADIY ISHLOV BERISH METODIKASI.

Olam ham undagi jamiki mavjudotlar ham mo'jiza qilib yaratilgan. Ularni barchasi insonlar uchun bo'lib, ulardan ajdodlarimiz mohirona foydalanib o'zlarini boy tajribalarini otadan-bolaga an'ana tariqasida xozirgacha etkazib kelganlar. Ushbu cheksiz ma'naviy boy tajribalarni kelajak avlodga etkazish har birimizni insoniylik burchidir.

Qadimdan ota-bobolarimiz har xil idish tovoq o'rnida qovoqlardan foydalanib kelganlar. Ularni mahsus odamlar ekib ko'paytirganlarib rastalarda sotganlar. Qovoqlardan cho'mich, kosa, piyola, tuzdon, qanddon, suv idish, to'rqovoq, guldon va boshqa xalq istemoli uchun foydalanadigan maxsulotlarlar yasaganlar. Qovoqlar palakdosh o'simliklar turkumiga mansub bo'lib, ular bir yillik o'simlikdir. Poyasi yotib, ilashib o'sadi. Vatani Amerika bo'lib uning 13 turi mavjud. Bular osh qovoq, oyim qovoq, kartoshka qovoq, idish qovoq va boshqa nomlar bilan yuritiladi. Uning asosan 3 turi keng tarqalgan osh qovoq (ovqat sifatida iste'mol qilinadigan qovoq turi), dastmol qovoq (mochalka o'rinda, idish-tovoq va boshqalar yuvishda ishlatiladigan qovoq) va idish qovoq (idish sifatida ishlatiladigan qovoq) turlariga bo'linadi. Idish qovoqdan qadim-qadimdan SHarq halqlari o'rtasida turli-tuman idish-tovoqlar sifatida foydalanish milliy an'ana tariqasida rivojlanib o'sib borgan.

Idish qovoq mahalliy ashyo bo'lib, uni amalda, hamda turmushimizda zeb beruvchi ro'zg'or buyumi sifatida foydalaniladi. Idish qovoqlar tez va ko'p meva beradigan qovoq bo'lgani va undan osongina idishlar tayyorlash qulay bo'lganligi, hamda bu idishlarda har xil oziq-ovqatlar buzilmasdan saqlanishini sinab yillar va asrlar davomida foydalanib kelganlar. Idish qovoqlarda qatiq ivitilsa yaxshi mazali ivigan va uzoq muddat saqlangan. Idish qovoqlar uch turga bo'linadi: suvqovoq, nosqovoq va negovqovoq.

Suvqovoq shakli noksimon shaklda bo'lib, balandligi 30-40 sm, sig'imi 4 yoki 5 litrgacha boradi. Undan ko'za, guldon, kosa, qanddon va xurmachalar yasalgan.

Nosqovoq shakli noksimon bo'lib, suvqovoqdan kichik bo'lib, uning bo'yi taxminan 8-10 sm bo'ladi. Nosqovoqdan tuzdon, qadah, ziravor saqlanadigan idishlar va boshqa narsalar yasaladi. Negovqovoqning bo'yi uzunroq, bo'yni ingichka bo'lib, taxminan 35-50 sm atrofida bo'ladi. Undan cho'mich sifatida foydalanilgan.

Qovoqlarni badiiy bezashda tabiat, hayvonot olami va inson qomati aks etgan kompozitsiyalar ishlash uchun naqqoshlar turli hajmdagi qovoqlardan andazalar oladilar. Andazaning aniq o'lchamiga asosan, kompozitsiya qonun-qoidalariga rioya qilgan holda turli eskizlar ishlaydilar. Qovoqlarni badiiy bezashda naqqoshlar naqsh yoki miniatyura kompozitsiyalaridan foydalanishadi. Kompozitsiyasini qalamda va rangda ishlanadi. Musavvirning birinchi ashyosi bu qalam. Uning bir necha turlari bo'lib, grafit qalami, pastel, sangina, sous, ko'mir qalamlardan iborat.

Obdon pishib etilgan qovoqlar uzib olinib 1-2 yillar

Davomida quritiladi va qopqoqlari drel yordamida teshilib ularning ichidagi urug'lari tushirilib tozalaniladi. Ustidagi po'stloq qismi suvda ivitilib o'tkir pichoq yordamida qirib tashlanadi. Tozalanib tayyor holga keltirilgan qovoqlar 25-30 minut davomida zig'ir yog'da qaynatiladi. Bu yog' boshqa yog'larga nisbatan tez quridi. Qovoqning yog'i oqib ketguncha setka ustiga qo'yiladi.

Bu jarayonlar tugagach, yog'li taxta qurishini tezlatish uchun issiqligi boshqariladigan pechka isitgich javonga terib qo'yiladi. Isitiladigan javon issiqligi xona issiqligidan boshlab har kuni 10^0 S qo'shib boriladi. Issiqlik 60^0 S etgach, har kuni 10^0 S dan kamaytirib boriladi. Xona issiqligi 10^0 S bo'lsa, 60^0 S ga etishi uchun 6 kun kerak bo'ladi. Yana ortga qaytish uchun 6 kun kerak bo'ladi. Demak 12 kun davomida issiq temir javonda ushlangan yog'li qovoqlar qurib ulguradi.

Yaxshi qurigan qovoqning ust qismi nazardan o'tkazilib. Tayyor holga keltirilgan qovoqlar ayrim hollarda kompozitsiya loyihasining koloritiga qarab yuzasi moy bo'yoqda bo'yab chiqiladi. Moy bo'yoq rangi qurigandan so'ng laklash bosqichiga o'tiladi. Sovg'a buyumini laklashda rangsiz moyli lakdan foydalaniladi. Sovg'a buyumini har xil changlardan asrash va sifatli quritish uchun yuqorida

aytilgan issiqlik pechlardan foydalaniladi. Quritish jarayoni 60⁰ issiqlikda olib borilib, asta-sekinlik bilan sovutiladi. Laklangan sovg'a buyumini yuzasida kamchiliklar sezilganda qum qog'ozda jilvirlanib, u qaytadan laklanadi. Bu jarayon 3 marotaba takrorlanadi.

Qovoqning aniq o'lchamini olib, qog'oz tanlab mavzu asosida kompozitsiya loyihalarini bajaradilar. Sovg'a buyumning ortogonal ko'rinishlari – bosh va yon tomonlari uning o'lchamlari, rangi va fakturasi aniqlanadi.

Kompozitsiyasini yuzasiga to'g'ridan to'g'ri qalamda chiziladi yoki axta¹ yordamida tushirishdan oldin uning yuzasidagi lakning yaltiroq qismi qirib tashlanadi va pishgan g'isht upasi yuzaga surib chiqiladi. Qovoqning laklangan yuzasi bilan ranglarni bir-biriga yaxshi qo'shilishida upa bog'lovchi vazifasini o'taydi.

Kompozitsiya yuzasiga to'liq tushirilgandan so'ng ranlash jarayoni boshlanadi. YUzasini ranglash quydagi tartibda amalga oshiriladi: Katta yuzalar: fon, kiyimlar, yuz va qo'l qismlari bo'yab chiqiladi. Turlash, siyoh qalam ishlari, kiyimlardagi chiziq va burmalar bajariladi. Odam yuz qismidagi bo'laklar ingichka mo'yqalam yordamida ishlanadi. Liboslardagi naqshlar, gullar bilan bezaladi va kompozitsiyadagi mayda detallarga aniqliklar kiritiladi. Qovoq yuzasidagi kompozitsiyani tugallanishining so'nggi bosqichida, usta ijod qilgan shahar nomi, yili va shaxsiy imzosi qo'yilgandan so'ng buyumni qor, yomg'ir issiq va sovuqdan saqlash maqsadida laklanadi. Laklash va pardozlash ishlari quydagi bosqichda amalga oshiriladi. YAssi yuzali mo'yqalam orqali rangsiz moyli lakda laklanib, pechda quritiladi. Laklash jarayonida foydalaniladigan loklar quyidagi talablarga javob berishi kerak: tashqi muhitga chidamlilik, elastik rangsiz qobiq hosil qilish, tez qurish va boshqalar. Quritish jarayonida yuzaga kelgan pufakchalarni yo'qotish maqsadida qum qog'oz bilan jilvirlanib, yana bir marotaba

¹ Ахта (улки) – нақш ёки расми қоғозга чизиб, чизиқ йўллари игна билан тешиб тайёрланган андаза. Нақшни юзаги туширишда ишлатилади.

laklanadi va quritilgandani so'ng yana bir bor mayda qum qog'ozda jilvirlanib, o'simlik yog'i bilan qo'l kafti yordamida ishqalanadi.

Qovoqning yuzasi ko'k tosh kukuni bilan duxoba mato yordamida ishqalanib, pardozlash ishlari bajariladi. Xajmi va shakliga qarab tayyor holga kelgan sovg'a buyumini sifatli saqlash uchun kartondan quti karopkasi yasaladi va sovg'a buyumi gul qog'oz va kolegrafik yozuvlar bilan bezaladi.

Savolnomalar.

1. Mahalliy ashyolarga nimalar kiradi?
2. Qovoqni qanaqa turlari mavjud?
3. Qovoqa qanday ishlov beriladi?
4. Qovoqlardan nimalar yasaladi?
5. Idish qovoqlarda oziq-ovqatlar nima uchun yaxshi saqlanadi?
6. Qovoqlar qanaqa etishtiriladi?
7. Idish qovoqni usti nimada qirib tozalanadi?
8. Idish qovoqlarga tabiiy xolatda qanaqa qilib shakl beriladi?
9. Qovoqlarga qanaqa qilib tirnab bezak solinadi?
10. YOg‘och buyumlariga grizal ishlash texnologiyasi?
11. Lokni qanaqa turlari ishlatiladi?
12. YOg‘och buyumlariga naqsh ishlash texnologiyasi?
13. Nosqovoqlarga badiiy ishlov berish qoidalari?
14. Qabariq sirtlariga naqsh ishlash bosqichlarini aytib bering?
15. YOg‘och buyumlarini loklash bosqichlarini tushuntirib bering?
16. Qovoqlarni nechki xil turlari bor?
17. Sovg‘a buyumlariga eskiz bajarish yo‘llarini tushuntirib bering?
18. Qovoqlardan qanaqa idishlar tayyorlanadi?
19. YOg‘och buyumlarini yasash texnologiyasi?
20. Naqsh kompozitsiyalarida ranglarning uyg‘unligi va jozibadorligi?
21. YOg‘och buyumlarni tekislash uchun qanaqa qumqog‘ozlar ishlatiladi?
22. Idish qovoqlar qachon ekiladi?
23. Idish qovoqlarga qanaqa shakllar beriladi?
24. Bezak ishlashdan oldin yog‘och buyumlariga ishlov berish texnologiyasi?
25. To‘rqovoqlar tayyorlash texnologiyalari?
26. Qutichaga badiiy ishlov berish bosqichlari?

- 27.Sovg'a buyumlariga ikki bandli naqshlar bilan bezash?
- 28.Naqsh kompozitsiyada ramziyliklarni ifodalanishi?
- 29.Sovg'a buyumlariga bir bandli naqshlar bilan bezash?
- 30.Tosh oynani yasash va unga badiiy ishlov berish texnologiyasini tushuntirib bering?

Testlar

1. Naqshni to'liq pardoqlash ketma-ketligi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- *a) targ'il, taroq va laklash.
- b) siyoh qalam, targ'il, taroq va obi tortish.
- v) shpaklyovka qilish, jilvirlash, gruntlash.
- g) siyoh qalam, targ'il tortish.

2. Naqshni bo'yash (turlash) nimadan boshlanadi?

- a) gul va barg elementlarini bo'yashdan.
- b) band elementlarini bo'yashdan.
- v) shkifta va bofta elementlarini bo'yashdan.
- *g) zaminni bo'yashdan.

3. Naqshlanadigan buyumni qaysi yog'ochdan yasash maqsadga muvofiqdir?

- *a) o'rik, yong'oq, tol.
- b) qayin, terak, olma.
- v) terak, qarag'ay, o'rik.
- g) qayin, qora qayin, terak, qarag'ay, nok, yong'oq.

4. Axta nima uchun tayyorlanadi?

- *a) naqsh tushirish uchun.
- b) jilo berish uchun.
- v) nusxa ko'chirish uchun.
- g) a va v qatordagi javob to'g'ri.

5. Mahalliy ashyolarga nimalar kiradi?

- *a) yogʻoch, idish qovoq, tuproq va boshqalar.
- b) yogʻoch, tuproq, qovoq, shirach, xum va boshqalar.
- v) tuproq, albastr, gips, oyna.
- g) pista koʻmir, albastr, lak va boshqalar.

6. Qovoqni nechta turlari mavjud?

- a) 10
- b) 2
- *v) 13
- g) 5

7. Qovoqlardan nimalar yasaladi?

- a) kosa, choʻmich, tuzdon, qoshiq, lavix va boshqalar
- *b) tuzdon, toʻr qovoq, nosqovoq va boshqalar
- v) toʻrqovoq, stol stul, belanchak.
- g) hech nima yasab boʻlmaydi.

8. Qovoqdan asosan nima sifatli yasalgan?

- a) kasa va choʻmich
- b) kosa
- v) togʻara
- *g) choʻmich

9. Qovoq qaysi oylarda pishib etiladi?

- *a) dekabr - yanvar
- b) oktyabr - nayabr
- v) sentyabr - nayabr
- g) yanvar - mart

10. Idish qovoqlar qaysi oyda ekiladi.

- a) martda
- *b) mayda
- v) aprelda
- g) iyunda

2-variant

1. Dunyoda qovoqlarni asosan nechta turi keng tarqalgan?

- a) osh qovoq
- b) dastmol
- *v) osh qovoq, dastmol qovoq va idish qovoq.
- g) 5 ta turi.

2. Idish qovoqlar necha turga bo'linadi?

- *a) suvqovoq va nosqovoq
- b) suvqovoq, nosqovoq, negovqovoq
- v) 5 ta turi
- g) 7 ta turi.

3. Nosqovoqdan nimalar yasaladi?

- *a) nosqovoq, tuzdon, qadax va boshqalar
- b) nosqovoq
- v) tuzdon, ziravorlar idishlar va to'rqovoq
- g) nosqovoq, guldun, cho'mich va boshqalar.

4. Naqqoshlikda kontas nimani anglatadi?

- a) stilizatsiya so'zining o'zgacha nomi
- *b) ranglar qarama-qarshiligi
- v) mustaqil naqsh tuzish
- g) kompozitsiya so'zining o'zgacha nomi

5. YAshil rangning ramziy ma'nosi?

- a) Maysazor ramzi
- *b) Ona tabiat raizi
- v) Go'zallik ramzi

g) Ona ramzi

6. Qaysi ranglar «Axromatik» hisoblanadi?

- a) Sariq, ko'k, qizil va shunga yaqin ranglar.
- b) Nilobiy, ko'k, binafsha va shunga yaqin ranglar
- v) Sariq, zarg'aldoq, jigarrang va shunga yaqin ranglar
- *g) Oq, kulrang, qora ranglar boshqa shunga yaqin ranglar

7. Qaysi ranglar «Xromatik» deyiladi?

- a) Oq, kulrang, qora
- b) Sariq, qora, yashil
- *v) Qizil, sariq, ko'k, ranglardan boshqa ranglar
- g) Oq, kulrang, qora ranglardan boshqa hamma ranglar

8. Naqqoshlikda kontras nima?

- a) stilizatsiya so'zining o'zgacha nomi.
- b) kompozitsiya so'zining o'zgacha nomi.
- v) mustaqil naqsh tuzish.
- *g) ranglar qarama-qarshiligi.

9. Sovuq ranglar qaysilar?

- a) yashil va sariqga yaqin ranglar
- b) qizil va zarg'aldoqg'a yaqin ranglar

*v) ko'k va feruzaga yaqin ranglar

g) binafsha va yorqin qizilga yaqin bo'lgan ranglar

10. Eng toza rang qaysilar?

a) axromatik

*b) spektor ranglar

v) barcha sovuq rangar

g) barcha iliq ranglar

3-variant

1. Taqsim nima?

a) rang bosqichi

b) pardozlash

*v) joylashtirish

g) guruntlash

2. Rang kontrasti nima?

*a) rangning qarama-qarshilgi

b) ranglar to'yinganligi

v) ranglar doirasi

g) ranglar uyg'unligi

3. «Garmoniya» so'ziga berilgan to'g'ri tavsifni aniqlang?

a) ranglarning nomutanosibligi

b) ranglarning munosibligi

v) ranglar ketma-ketligi

*g) ranglar uyg'unligi

4. Kompozitsiya termini nima ma'noni anglatadi?

- a) qurish, tuzish, birlashtirish, yasash
- b) birlashtirish, o'yish, yasash va hokozo
- *v) bir-biriga nisbatan ma'lum tartibda joylashtirish, birlashtirish
- g) mustaqil naqshlar

5. Iliq ranglar qaysilar?

- *a) qizil va sariqqa yaqin bo'lgan ranglar
- b) ko'k va feruzaga yaqin bo'lgan ranglar
- v) yashil va qoraga yaqin bo'lgan ranglar
- g) oq va qoraga yaqin bo'lgan ranglar

6. «Kolorit» so'ziga berilgan to'g'ri ta'rifni toping?

- *a) Ranglar uyg'unligi
- b) Badiiy asardagi etakchi rang
- v) Ikki xil rangdan uchinchi xil rangni hosil qilish
- g) Bu so'zning ta'rifi yo'q

7. Ritm iborasining ta'rifi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) o'lchovlarning bir-biriga mos kelishi (mutanosiblik).
- *b) naqsh, bezak elementlarining ma'lum tartibda bir tekisda takrorlanishi.
- v) ranglar qarama-qarshiligi, naqsh elementlarining takrorlanishi, ranglarni bir-biridan och to'qligi
- g) rang tusi, o'lchovlarning bir-biriga mos kelishi.

8. Kontrast nima?

- a) Kompozitsiyani jozibadorligi
- b) Mustaqil naqsh to'qish

- *v) Rangni qarama-qarshiligi
- g) Islimiy naqsh ko'rinishi

9. Munabbat naqsh qanaqa naqsh kompozitsiyasiga kiradi?

- *a) To'rt tomonga takrorlanuvchi naqsh turi
- b) Oddiy naqsh turi
- v) Bir-biriga mos kompozitsiya
- g) A va V to'g'ri

10. Mornech naqsh deganda nimani tushunasiz?

- a) Geometrik naqsh turi
- b) Islimiy naqshga o'xshash kompozitsiya
- *v) Ilon izi o'rama ko'rinishdagi naqsh
- g) To'rt tomonga takrorlanuvchi naqsh turi

1- Uy-ro'zg'or buyumlarni naqshlash.

Mashg'ulotdan maqsad: Naqqoshlikda ishlatiladigan kerakli materiallar, asbob-uskunalar, ya'ni har xil jilvirlar, duradgorlik elimi, katta-kichik belchalar, bo'r, alif, guash, akvarel, bo'yoq, bronza, oq hal, mo'yqalamlar, loklar. Biror buyumni yasash, ya'ni yog'och tanlash, randalash, arralash, biriktirish, jilvirlash. Bo'r, elim va alif yordamida shpaklyovka tayyorlash. Buyum sirtini shpaklyovka qilish va tekislash. Gruntovka qilish, ya'ni biror guashda, tilla yoki kumush rang surkab chiqish. Buyumga moslab naqsh ishlash va uni shaffof qog'ozga ko'chirish hamda axtasini tayyorlash. Xoka tayyorlash. YOg'och buyum sirtiga naqshni kompozitsion qilib naqsh o'rnini belgilash va naqsh nusxasini axta hamda xoka yordamida tushurish. Siyoh qalam qilish, naqsh zaminini bo'yash, gul barg va boshqalarni turlash hamda targ'il berish. Obi tortish va loklash.

Amaliy mashg'ulot: xoka tayyorlash. Axta tayyorlash. SHpaklyovkalashni o'rganish. Amalda siyoh qalam tayyorlash, loklash va boshqalarni o'rganish.

2- Mashq Quticha, novo, qalamdon, ramka va boshqalarni naqshlash.

Mashg'ulotdan maqsad: Qutichaga moslab yog'och tayyorlash va uni yasash. SHpaklyovka qilish, tekislash, gruntovka qilish. Ramkaga moslab naqsh chizish va uni axtasini tayyorlash. Axta yordamida ramka sirtiga naqsh tushurish va siyoh qalam qilish. Naqshni bo'yash va lok surtish

Amaliy mashg'ulot: Quticha, ramka, nova, qalamdon va boshqalarni yasash va uni naqsh bilan bezash.

3- Mashq Stulchani naqshlash.

Mashg'ulotdan maqsad: Stulchaga moslab naqsh tuzish. Uning axtasini tayyorlash, buyum sirtini tekislash, gruntovka qilish. Naqsh tushurib bo'yash va unga lok surtish. Xalq ustalarining ishlarini tahlil qilish.


Amaliy mashg'ulot: Stulchani naqsh bilan bezash

SHatranj. Buxoro, XIX-XX asr



SHatranj. Buxoro, XIX-XX asr boshlari.

O'zbekiston territoriyasida shatranjining o'rta asrlardayoq ommalashib ketayotganligi borasida Dalvarzintepa (eramizgacha II asr), Afrosiyob (VI-VII asrlar), Termiz (XVI asr)da olib borilgan arxeologik qazilma topildiqlari guvohlik beradilar. SHatranj o'yinnini hozirda ham ko'pchilik sevadi. SHatranj donalari va taxtasidagi naqshlar XIX-XX asr o'zbek xalq amaliy san'at an'analar asosida ado etilgan.



Toshkent naqshi (Quticha)



Дипломные работы студентов Кокандского колледжа искусств



SHoilhom SHoyoqubov. Penal “Naqshinkor kompozitsiya”. Toshqog‘oz, pigment, yupqa zarvaraq, lok. 2003.



Otabek Irmatov. Quticha. “Namoyon” Toshqog‘oz, pigment, yupqa zarvaraq, lak 2004.




Tohir Ikromov. Quticha “Namoyon”. Naqshinkor bezak. Toshqog‘oz, pigment, yupqa zarvaraq, lak. 2005.



Naqqosh Abdullo Nozirov ijodidan na'munalar.



Naqqosh Mahmudjon Yoqubjonov ijodidan na'munalar.



Naqqosh Hotam Isoqjonov ijodidan na'munalar.





Naqshlangan taglik



Naqshlangan quticha



Naqsh bezakli quticha

Nosqovoqlar XX asr boshlari.






Sirojiddin Ziyomov tomonidan ishlangan nosqovoq 2003.






SHorasul SHoahmedov. Namoyon. "Yo'lovchi". SHohqog'oz, tempera, suvbo'yoq, yupqa zarvaraq. 2005.



Munira Sotiboldieva. .Idish. “Bahodir”. Kadi, tempera, suvbo‘yoq, lak. 2005.



SHamsutdin Rixsiev. Nosdon “Ovchi”. Suyak, tempera, lak. 1997



Munira Sotiboldieva. To‘plam. “Suhbat”. Kadi, tempera, suvbo‘yoq, lak. 2005.



Munira Sotiboldieva. Majmua. “Noskadi” . Kadi, tempera, suvbo‘yoq, lak. 2005.

Biletlar.

1-bilet

1. YOg'och buyumlarini loqlash bosqichlarini tushuntirib bering?
2. Tuzdoni badiiy bezash

2-bilet

1. YOg'och buyumlariga naqsh ishlash texnologiyasi?
2. Qalamdoni badiiy bezash

3-bilet

1. Naqsh kompozitsiyalarida ranglarning uyg'unligi va jozibadorligi?
2. Qutichani badiiy bezash

4-bilet

1. To'rqovoqlar tayyorlash texnologiyalari?
2. Oddiy lavuhni naqshlash

5-bilet

1. Sovg'a buyumlariga eskiz bajarish yo'llarini tushuntirib bering?
2. YOg'ochdan yasalgan likobchani naqsh bilan bezash

6-bilet

1. Sovg'a buyumlariga bir bandli naqshlar bilan bezash?
2. YOg'och laganchani rangli eskiz tayyorlash.

7-bilet

1. YOg'och buyumlarni tekislash uchun qanaqa qumqog'ozlar ishlatiladi?
2. Edirma usulida likobchani bezash

8-bilet

1. Naqsh kompozitsiyada ramziyliklarni ifodalanishi?
2. YAshil koloritda qalamdoni bezash.

9-bilet

1. YOg'och buyumlariga grizal ishlash texnologiyasi?
2. Nosqovoqni jigarang kolotirta badiiy bezash.

10-bilet

1. Qovoqlarni nechchi xil turlari bor?
2. Laganchani bir bandli qilib bezash.

11-bilet

1. Qovoqlardan qanaqa idishlar tayyorlanadi?
2. Likobchani ikki bandli qilib bezash.

12-bilet

1. Nosqovoqlarga badiiy ishlov berish qoidalari?
2. Tosh oynani xavorang koloritda bezash.

13-bilet

1. Qovoqlarga qanaqa qilib tirnab bezak solinadi?
2. To‘rqovoqqa sariq koloritda kompozitsiya chizing

14-bilet

1. Sovg‘a buyumlariga ikki bandli naqshlar bilan bezash?
2. Kurschani yashil koloritda kompozitsiya bajaring.

15-bilet

1. Idish qovoqlarga tabiiy xolatda qanaqa qilib shakl beriladi?
2. YOg‘och guldoni sariq koloritda bezang.

16-bilet

1. YOg‘och buyumlarini yasash texnologiyasi?
2. Sabzi taxtani naqsh bilan bezash.

17-bilet

1. Idish qovoqni usti nimada qirib tozalanadi?
2. Kursichani yashil koloritda bezang.

18-bilet

1. Idish qovoqlarda oziq-ovqatlar nima uchun yaxshi saqlanadi?
2. Qutichaga asoslanib eskiz chizish va ranglash.

19-bilet

1. Idish qovoqlarga qanaqa shakllar beriladi?
2. Kursiga eskiz chizish va ranglash.

20-bilet

1. Qovoqa qanaqa ishlov beriladi?
2. Tosh oynaga eskiz chizish va ranglash

21-bilet

1. Qovoqlar qanaqa etishtiriladi?
2. Qovoqlarga naqsh berish.

22-bilet

1. Qovoqni qanaqa turlari mavjud?
2. Tosh oynani yasash va unga badiiy ishlov berish texnologiyasini tushuntirib bering?

23-bilet

1. Qovoqlardan nimalar yasaladi?
2. Qutichaga badiiy ishlov berish bosqichlari?

24-bilet

1. Qabariq sirtlariga naqsh ishlash bosqichlarini aytib bering?
2. Idish qovoqlar qachon ekiladi?

25-bilet

1. Mahalliy ashyolarga nimalar kiradi?
2. Lokni qanaqa turlari ishlatiladi?

XULOSA

O'zbek xalqi o'zining qadimiy va boy madaniyati bilan butun dunyoga mashhurdir. O'zbekistonning qadimiy yodgorliklari va tuproq osti qismi ulkan tarixiy muzeydir. Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Termiz va boshqa shahardagi har bir arxitektura yodgorligi bir buyuk asar, nodir qo'lyozmalar, xalq amaliy san'ati namunalari bir vaqtlar o'zbek xalqining madaniyati naqadar yuksak bo'lganligidan dalolat beradi, chunonchi ota-bobolarimiz qurgan binolar, me'morchilik bezaklari, ularning rang-barangligi, geometrik va o'simliksimon naqshlar ularning kompozitsion tasviri zavq olishga, tarbiyalanishga, ular orqali o'z orzu-umidlarini, muhabbatlarini xalqqa izhor etishga chorlaydi. Asrlar davomida orttirilgan madaniy boyligimiz, xalq amaliy san'atining ayrim turlari, ularning o'ziga xos tomonlari, haqiqiy o'zbekcha nomlari ishlash texnologiyasi va ularni yaratgan ustalarimizning nomlari asta-sekin unutilib ketish arafasida.

SHuning uchun xalqimizning asrlar bo'yi qilgan ijodiy mehnati natijasida yaratilgan tarixiy yodgorliklar va boshqa amaliy san'at namunalarini ko'z qorachig'idek saqlash, qadrlash va ulardan foydalanish hozirgi davrimizning eng muhim vazifalaridan biridir. Madaniy meros va yuksak badiiylik milliy an'anani rivojlantirishga undan foydalanish, undagi ijodiy amaliyot uslublarini joriy etish, tabiiy xomashyolar bilan ishlash, kishilarda ayniqsa, yoshlarda qunt, chidam qat'iyat, xalq amaliy san'atining qiziqarli o'ziga xos turlariga dahldor etish maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim tizimida kasb-hunar kollejida o'quvchi yoshlarni siyosiy-g'oyaviy va estetik ruhda tarbiyalashda, go'zallikni seza bilishga, san'at asarlarini o'rganishga, ulardan bahra olishga, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik qobiliyatlarini oshirishga, amaliy san'atga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirish, kasb tanlash, ko'nikma va dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning Axborotnomasi, 1997, №9.
2. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi, 1997, №9.
3. Xalq badiiy hunarmandchilik va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. – T.: Toshkent oqshomi. - 1997, 2 aprel, № 38.
4. O'zbekistonda umumiy o'rta ta'lim konsepsiyasi Xalq ta'limi. 1992, № 2, - 9-18b.
5. Azimov I. O'zbekiston naqshu nigorlari. –T.: Adabiyot va san'at nashri. 1987, - 144 b.
6. Apuxtin O.K. Badiiy naqsh maktabi. –T.: O'qituvchi, 1969.
7. Bulatov S.S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. –T.: Mehnat, 1991, - 384 b.
8. Bulatov S.S. Ganch O'ymakorligi. O'quv dasturi. –T.: O'qituvchi, 1989.-33 b.
9. Zohidov P.SH. Me'mor olami.– T.: Qomuslar Bosh tahririyati. 1996, 240 b.
10. Zohidov P.SH. Farg'ona naqshi. (Xalq ustasi Saidahmad Norqo'zиеv albomidan). –T.: O'zadabiynashr, 1960,-48 b.
11. Maksimov YU.V. To'qishni o'rganamiz. –T.: Mehnat, 1989, -312
12. Milliy maktab poydevorini yaratish yo'lida. (Tuz.M.M.Rasulov). –T.: O'zPFITI, 1991, -93 b.
13. Mirzaahmedov M.X. Materiallarga badiiy ishlov berish. –T.: O'qituvchi, 1986.
14. Muranov .I. Umumta'lim maktablarida mehnat ta'limi mashg'ulotlarini taxminiy rejalashtirish. –T.: U.B.M.T.M.U., 1996, -68 b.
15. SHabaratov P.P. “Miniatyura” maruzalar matni. Toshkent Nizomiy nomliq TDPU. 2000 yil.
16. Nabiev M. Rangshunoslik va ranglar texnologiyasi. –T.: O'qituvchi, 1995,

17. Tasviriy san'at. (1-7 sinflar uchun dastur. Tuz. R.Xasanov). –T.: O'zPFITI, 1994, -60 b.
18. SHabaratov P.P. Lakli miniatyura. "Kompozitsiya". YAngi asr avlodi. 2007
19. Usmonov O. Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi. –T.: Fan, 1977, -149 b.
20. Egamov H. Bo'yoqlar bilan ishlash. –T.: O'qituvchi, 1981, 56 b.
21. Qosimov Q. Naqqoshlik. –T.: O'qituvchi, 1990, -160 b.

Elektron resurslar:

1. [www. Tdpu.uz](http://www.Tdpu.uz)
 2. www. Pedagog.uz
 3. www. Ziyonet.uz
 4. www. Edu.uz
 5. tdpu-INTRANET. Ped
 6. www. nbgf. Intal.uz
- <http://ref.ruscore.ru/rqref/part 19/item24817.html>

ILOVALAR:

1-ilova. O‘ZBEKCHA INGILIZCHA TERMINLAR

hunarmand- handi craftsman

arxetektura-architectore

yodgorlik-monumental, kufsan

memorchilik-carving

geometrik-geometric

shakl-form

kompozitsiya-composition

zamonaviy-modern

texnologiya-technology

kompyuter grafikasi-computer graphics

xalq ustasi-population master

chizgich-ruler

sirkul-circuler

arxeologik qazilma-archeological mineral

tasvir-draw

kulolchilik-ceramik

madaniyat-culture

element-element

motiv-motive

o‘simliksimon-fountain

rasm-picture

manzara-scene

majmua-complex

maqbara-mausoleum

peshtoq-porch

amaliy sanat- fine art

naqqoshlik-carving


2-ILOVA. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR.

So‘roqnoma aqliy hujum.

31. Mahalliy ashyolarga nimalar kiradi?
32. Qovoqni qanday turlari mavjud?
33. Qovoqa qanday ishlov beriladi?
34. Qovoqlardan nimalar yasaladi?
35. Idish qovoqlarda oziq-ovqatlar nima uchun yaxshi saqlanadi?
36. Qovoqlar qanday etishtiriladi?
37. Idish qovoqni usti nimada qirib tozalanadi?
38. Idish qovoqlarga tabiiy xolatda qanaqa qilib shakl beriladi?
39. Qovoqlarga qanaqa qilib tirnab bezak solinadi?
40. YOg‘och buyumlariga grizal ishlash texnologiyasi?
41. Lokni qanday turlari ishlatiladi?
42. YOg‘och buyumlariga naqsh ishlash texnologiyasi?
43. Nosqovoqlarga badiiy ishlov berish qoidalari?
44. Qabariq sirtlariga naqsh ishlash bosqichlarini aytib bering?
45. YOg‘och buyumlarini loklash bosqichlarini tushuntirib bering?
46. Qovoqlarni nechki xil turlari bor?
47. Sovg‘a buyumlariga eskiz bajarish yo‘llarini tushuntirib bering?
48. Qovoqlardan qanaqa idishlar tayyorlanadi?
49. Yog‘och buyumlarini yasash texnologiyasi?
50. Naqsh kompozitsiyalarida ranglarning uyg‘unligi va jozibadorligi?
51. Yog‘och buyumlarni tekislash uchun qanaqa qumqog‘ozlar ishlatiladi?
52. Idish qovoqlar qachon ekiladi?
53. Idish qovoqlarga qanaqa shakllar beriladi?
54. Bezak ishlashdan oldin yog‘och buyumlariga ishlov berish texnologiyasi?
55. To‘rqovoqlar tayyorlash texnologiyalari?
56. Qutichaga badiiy ishlov berish bosqichlari?
57. Sovg‘a buyumlariga ikki bandli naqshlar bilan bezash?

- 58.Naqsh kompozitsiyada ramziyliklarni ifodalanishi?
- 59.Sovg'a buyumlariga bir bandli naqshlar bilan bezash?
- 60.Tosh oynani yasash va unga badiiy ishlov berish texnologiyasini tushuntirib bering?

Naqsh kompozitsiyalarida ranglarning uygʻunligi va jozibadorligi?



ANKETA TEXNOLOGIYASI
O‘zbek xalq amaliy san’atiga oid terminlar

№	Terminlar	Amaliy san’at turi		
1				
2				
3				
4				
5				
6				
7				
8				
9				
10				
11				
12				
13				
14				
15				
16				

ELPIG'ICH TEXNOLOGIYASI

Bu texnologiya har qanday fanda qo'llanilishi mumkin bo'lib solishtirish asosida amalga oshiriladi. Bunda o'quvchilar mustaqil ravishda fikrlaydilar farqini aniqlaydilar va xulosa yozadilar.

№	Naqqoshlik		Ganchkorlik	
	ijobiy	salbiy	ijobiy	salbiy
1.				
2.				
3.				

CHAXPALAK


№	Elementlar gruppasi								
1	rasm								
2									
3									
4									
5									
6									
7									

Zinama-Zina texnologiyasi
Naqsh turlari

1	rasm	
2		
3		

1. Jalil Hakimov qaysi mvktabning namoyondasi bo‘lgan
 1. S.Norqo‘ziev qaysi mvktabning namoyondasi bo‘lgan
 2. Samarqandlik ganch ustasini nomi Jalilov
 3. Toshkent naqqoshlik maktabining ustasi YOqubjon
 4. Toshkent naqqoshlik maktabining ustasi To‘xtaxo‘jaev
 5. Toshkentlik ganch ustasi Mahmud
 6. Samarqand naqqoshlik maktabining ustasini nomi
 7. Toshkent naqqoshlik maktabining ustasi Qosimjonov

1 T							
O							
K				3Q			
E				U			
N				L			
5T	O	Y	I	4R			
				A			
				U			
				F			
	7J						
2F	A	R	G‘	O	N	A	
	M			V			
	8O	L	I	M	J	O	N
	L						
	I						
	D						
	D						
	I						
	N						



Taqriz

1.Rejaning to'g'ri tuzilganligi, mantiqiyliigi

2.Mavzuda ko'tarilgan muammoning nazariy asoslanganligi

3.Ishning metodik ahamiyati-----

4.Bitiruv malaka ishida muallif ish tajribasining yoritilishi

5. Mavzuni dars jarayoniga tadbiq etish usullarining mavjudligi

6. Adabiyotlar ro'yxatining mazmunga mosligi-----

7.Bitiruv malaka ishidagi kamchiliklar

1.-----

2.-----

3.-----

4.-----

8.Taqrizchining tavsiyalari-----

9.Taqrizchi-----

(ismi va familiyasi ilmiy darajasi)

10. ishga berilgan baho-----

11. Imzo-----

Sana-----